

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

«HISOB VA AUDIT» FAKULTETI

«BUXGALTERIYA HISOBI» KAFEDRASI

IBRAGIMOV OYBEK ABDUJALILOVICH

**«TOVAR-MODDIY ZAXIRALAR INVENTARIZATSIYASINI TASHKIL
ETISH VA UNING NATIJALARINI RASMIYLASHTIRISH TARTIBI»**

-“Buxgalteriya hisobi va audit”- ta’lim yunalishi bo’yicha bakalavr
darajasini yulish uchun yozilgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

«HIMOYAGA RUXSAT ETILDI»

«Buxgalteriya hisobi» kafedrasi mudiri

_____ i.f.n., dots. B.O.Bolibekov
(imzosi)

«_____» _____2015y.

Ilmiy rahbar: _____dots.O.M.Kuljanov
(imzosi)

«_____» _____2015y.

TOSHKENT – 2015

Men, Ibragimov Oybek Abdusalilovich ushbu BMini mustaqil bajardim, ko'chirmachilik holati yo'qligiga javob beraman. Ko'chirmachilikka yo'l qo'ygan holatimda BMI kafedra mudiri taqdimnomasiga asosan rektor buyrug'I bilan bekor qilinishi va "qoniqarsiz" baho qo'yilishini bilaman.

Talabaniq F.I.Sh. va imzosi, sana

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Mamlakatimizda ishlab chiqarish jarayonini rivojlantirish va xo'jalik yurituvchi sub'yektlarning faoliyatini qo'llab-quvvatlash, hamda ularning ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish) faoliyatini takomillashtirib borish dolzarb masala hisoblanadi. Chunki xo'jalik yurituvchi sub'yektlarning moliyaviy jihatdan rivojlanishi va iqtisodiy samaradorligining ortishi bevosita iqtisodiyotning taraqqiy ettirishining muhim omili hisoblanadi. Oxirgi yillarda yalpi ichki mahsulotda xususiy sektorning ulushi doimiy ravishda ortib kelmoqda.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning samarasi o'laroq bugungi kunda jamiyatimizning barcha sohalarida tub burilishlar, yangilanishlar, kundan-kunga keng quloq yozmoqda. So'ngi yillarda jahonning yetakchi davlatlari iqtisodiyotiga moliyaviy-iqtisodiy bo'hron o'z salbiy ta'sirini sezilarli tarzda ko'rsatdi. Ammo, O'zbekistonni bu inqiroz chetlab o'tdi desak mubolag'a bo'lmaydi. Sababi, bizning davlatimiz rahbari uzoqni juda yaxshi ko'ra bilgan, yurt taqdirini barcha narsadan ustun qo'yib, oqilona siyosat yuritishi natijasida moliyaviy inqirozdan aziyat chekmadi. Aksincha, dunyoda ko'pgina davlatlar inqirozni qanday bartaraf qilish chorasini qidirayotganda, respublikamiz yalpi ichki mahsulotida o'sish, byudjet ijrosi ijobiy profitsit bilan yakunlandi. Iqtisodiy islohotlarning eng ustuvor jihatlaridan biri sifatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka katta e'tibor qaratildi. Buning natijasida YAIM tarkibida aynan shu sohaning ulushi va unda mehnat qilayotganlar soni yildan yilga o'sib, oshib bormoqda. Buning isbotini 2012 yilda respublikamiz iqtisodiyotida amalga oshirilgan islohotlardan anglab olish qiyin emas, Prezidentimiz I.A. Karimov 2012 yil ijtimoiy iqtisodiy rivojlanish yakunlari va 2013-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlarini belgilab olishdagi nutqida "Global jahon iqtisodiyotida hali-beri saqlanib qolayotgan jiddiy muammolarga qaramasdan, 2012-yilda O'zbekiston o'z iqtisodiyotini barqaror sur'atlar bilan

rivojlantirishni davom ettirdi, aholi turmush darajasini izchil yuksaltirishni ta'minladi, dunyo bozoridagi o'z pozitsiyasini mustahkamladi. Bu davrda mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti 8,2 foizga o'sdi, sanoat ishlab chiqarish hajmi 7,7 foizga, qishloq xo'jaligi 7 foizga, chakana savdo aylanmasi hajmi 13,9 foizga oshdi.

Makroiqtisodiy barqarorlik va iqtisodiyotning mutanosibligi ta'minlandi. Eksport hajmi sezilarli ravishda, ya'ni 11,6 foizga o'sdi, eksport qilinayotgan mahsulotlar tarkibi va sifati yaxshilanib bormoqda. Buning natijasida xomashyo bo'lmagan tayyor tovarlarning ulushi 70 foizdan ziyodni tashkil etmoqda. Tashqi savdo aylanmasidagi ijobiy saldo 1 milliard 120 million dollardan oshdi. Inflyatsiya darajasining o'sish sur'ati prognoz ko'rsatkichlari doirasida saqlab qolindi va 7 foizdan oshmadi. 2012-yilda soliq yukini kamaytirish siyosati davom ettirildi. Kichik korxonalar va mikrofirmalar uchun yagona soliq to'lovi stavkalari 6 foizdan 5 foizga tushirilgani, yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun belgilangan soliq stavkasi esa sezilarli tarzda, ya'ni o'rtacha ikki barobar kamaytirilgani buni yaqqol tasdiqlaydi. Shularga qaramasdan, davlat byudjetining daromadlar qismi bo'yicha ko'rsatkichlari to'liq bajarildi, erishilgan profitsit yalpi ichki mahsulotga nisbatan 0,4 foizni tashkil etdi. Davlat jami xarajatlarining asosiy qismi, ya'ni qariyb 59,2 foizi ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy himoya qilish chora-tadbirlarini amalga oshirishga qaratildi, uning 34 foizdan ortig'i ta'lim, 14,5 foizdan ko'prog'i sog'liqni saqlash sohasini moliyalashtirishga yo'naltirildi".¹

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida xo'jalik yurituvchi sub'ektlar tomonidan tovar-moddiy zaxiralari hisobini to'g'ri yuritish, ularning tannarxini to'g'ri shakllantirish, xom-ashyo va materiallarni xarajat moddalari bo'yicha to'g'ri tasniflash, tayyor mahsulot va tovarlarni yuqori foydalilik darajasida sotish yo'llarini izlash, ular bo'yicha amalga oshirilayotgan muomalalarning to'g'ri, aniq va qonuniyligini auditorlik tekshiruvlaridan o'tkazish, shuningdek

¹ Prezidenti Islom Karimovning 2012-yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2013-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bog'liqlangan Vazirlar Mahkamasining ma'lisidagi nutqi

moliyaviy-xo'jalik faoliyatini tahlil qilish yordamida ichki foydalanilmayotgan rezervlarni qidirib topish hamda ularni ishlab chiqarishga safarbar etish kabi bir qancha masalalar shu kunning dolzarb muammolaridan biri bo'lib hisoblanadi. Chunki, ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifatini oshirish va pirovardida, mahsulot tannarxini kamaytirish orqali yuqori samaradorlikka hamda moliyaviy barqarorlikka erishish mumkin. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda ishlatilayotgan tovar-moddiy zaxiralarining holati, ularni hisobda aks ettirish tartibi va tarmoq xususiyatdan kelib chiqqan holda audit tekshiruvlarini o'tkazish hamda ularni takomillashtirish kabi masalalar bitiruv malakaviy ishi mavzusining asosiy mazmunini tashkil qiladi.

Bitiruv malakaviy ishining ob'ekti Navoiy viloyati, Navoiy shahridagi "Bunyodkor Qurilish-Montaj" mas'uliyati cheklangan jamiyati.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi va vazifalari. Bitiruv malakaviy ishining asosiy maqsadi xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda tovar-moddiy zaxiralar hisobini nazariy jihatdan keng yoritish, amaliy jihatidan hozirgi holatini o'rganish va ularning harakatini tahlil qilishni amalga oshirishdan iboratdir.

Ushbu maqsaddan kelib chiqqan holda bitiruv malakaviy ishining vazifalari shakllanadi. Bu bo'yicha quyidagi vazifalarni amalga oshirish mumkin:

- Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda tovar-moddiy zaxiralar hisobini tashkil etish tartibini o'rganish;
- Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda tovar-moddiy zaxiralar hisobini tashkil etishning me'yoriy-huquqiy asoslarini o'rganish;
- Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning asosiy faoliyatini tahlili, uning iqtisodiy ko'rsatkichlarini o'rganish;
- Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda tovar-moddiy zaxiralarini hisobga olishni yaxshilash yo'llari va uni joriy etishning mexanizimlarini aniqlash;
- Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning tovar-moddiy zaxiralaridan samarali foydalanish yo'llarini chuqurroq yoritishdan iboratdir.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda tovar-moddiy zaxiralar hisobini yaxshilash yo'llarini o'rganib chiqishdan iborat.

Tadqiqot predmeti bo'lib, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda tovar-moddiy zaxiralar hisobini uslubiy asoslari, moliyaviy hisobni, jumladan, tovar-moddiy zaxiralar hisobini yaxshilash yo'llarini aniqlash, hamda milliy va xalqaro tajribalari asosida bozor iqtisodiyotiga moslashtirish hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishining nazariy va uslubiy asoslari bo'lib, O'zbekiston Respublikasining Qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, asarlari va ko'rsatmalari hisoblanadi.

Bundan tashqari bitiruv malakaviy ishda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarorlari, Nizomlari va yo'riqnomalari, hamda Moliya Vazirligi tomondan qabul qilingan Buxgalteriya hisobi milliy standartlari, shuningdek, mamalakatimiz yetakchi olimlari va mutaxassislarining ushbu muammoga oid ilmiy-tadqiqot natijalari hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi. Bitiruv malakaviy ishi kirish, 3 ta bob, 6 ta chizma, 6 ta jadval, xulosa va takliflar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Ishning tarkibi uning maqsadi va yo'nalishlarini ifodalaydi.

I BOB. TOVAR-MODDIY ZAXIRALAR VA INVENTARIZATSIYANING IQTISODIY MOHIYATI, AHAMIYATI VA VAZIFALARI.

1.1.Tovar-moddiy zaxiralarning iqtisodiy mohiyati, turkumlanishi va vazifalari.

Hozirgi kunda turli mulkchilik shakllangan asosiy korxonalarda asosiy e'tiborni ishlab chiqarish hajmini kengaytirish, mehnat unumdorligini oshirish, korxonalarining rentabellik darajasini oshirish, tannarxni pasaytirish hamda pirovardida yalpi daromad, sof tushum hamda sof foydani ko'paytirishga qaratilgandir.

Hozirgi kunda kelib korxonalarda asosiy xarajatlar qismining oshishi, xarajatlarning oshishi esa korxonalarining moliyaviy natijalariga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Bizning vazifamiz ushbu yoziladigan bitiruv malakaviy ish orqali xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning xarajatlar qismida tovar-moddiy zaxiralarining tutgan o'рни, tannarxga ta'siri, ulardan qay darajada foydalanishni tahlil qilib pirovardida o'zimizning xulosa va takliflarni berishdan iborat.

Tovar-moddiy zaxiralarning ishlatilishi, ishlab chiqarish jarayonida yangi mahsulotga o'tkazilib yuborilishi, ularning harakatini hisobda to'g'ri aks ettirishimiz zarur.


Hozirgi kunga kelib tovar-moddiy zaxiralarining xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda oborot mablag'lari guruhida hisobga olib boriladi. Bularning aksi buxgalteriya balansi aktiv tomonida yuritiladi.

Tovar-moddiy zaxiralar ishlab chiqarish korxonalarda xarajatlar qismini asosini tashkil qiladi. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar tovar-moddiy zaxiralar holatini tahlil etganda quyidagi ko'rinishdagi sxemalarda baho berish mumkin.

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar amaliyotida tovar-moddiy zaxiralarning uch turi mavjud.(1-chizma.)


Tovar-moddiy zaxiralar iqtisodiy kategoriya sifatida ilmiy-uslubiy va me'yoriy manbalarda turlicha ta'riflangan. Jumladan, 4-sonli "Tovar-moddiy

zaxiralar" nomli BHMSga muvofiq: "tovar-moddiy zaxiralar - keyinchalik sotish maqsadida normal faoliyat yuritish jarayonida tutib turiladigan va ishlab chiqarish jarayonida mavjud bo'lgan, shuningdek, mahsulot ishlab chiqarish, ishlarni bajarish yoki xizmatlar ko'rsatish jarayonida yoxud ma'muriy va



1-chizma. Tovar-moddiy zaxiralar turlari.²

Tovar-moddiy zaxiralar o'z maqsadiga ko'ra quyidagi toifalarga bo'linadi. (2-chizma.)



2- chizma. Maqsadiga qarab tovar-moddiy zaxiralarning toifalari.³

²Haydarov Sh. Tuxsanov H. Tovar moddiy zaxiralarning tasnifi va ularning buxgalteriya hisobi uslubiy asoslari// Soliq solish va buxgalteriya hisobi. – Toshkent, 2006. - №4. – 6 b.

³Haydarov Sh. Tuxsanov H. Tovar moddiy zaxiralarning tasnifi va ularning buxgalteriya hisobi uslubiy asoslari// Soliq solish va buxgalteriya hisobi. – Toshkent, 2006. - №4. – 6 b.

me'yoriy manbalarda turlicha ta'riflangan. Jumladan, 4-sonli "Tovar-moddiy zaxiralar" nomli BHMSga muvofiq: "tovar-moddiy zaxiralar - keyinchalik sotish maqsadida normal faoliyat yuritish jarayonida tutib turiladigan va ishlab chiqarish jarayonida mavjud bo'lgan, shuningdek, mahsulot ishlab chiqarish, ishlarni bajarish yoki xizmatlar ko'rsatish jarayonida yoxud ma'muriy va ijtimoiy-madaniy vazifalarni amalga oshirish uchun foydalaniladigan moddiy aktivlar"⁴

Tovar-moddiy zaxiralar 4-sonli "Tovar-moddiy zaxiralar" nomli BHMSga muvofiq tashkilotlarda quyidagilar ko'rinishida bo'lishi mumkin:

- a) mahsulot ishlab chiqarish, ishlarni bajarish va xizmatlar ko'rsatish, ishlab chiqarishga xizmat ko'rsatish, ma'muriy ehtiyojlar va boshqa maqsadlar uchun mo'ljallangan xom ashyo va materiallar, xarid qilinadigan yarim tayyor mahsulotlar va butlovchi buyumlar, yoqilg'i, idish va idishbop materiallar, ehtiyot qismlar, inventar va xo'jalik anjomlari, boshqa materiallar zaxiralari;
- b) boquvdagi va yaylovdagi yosh hayvonlar, katta yoshdagi hayvonlar, parrandalar, asalari oilalari, sotish uchun asosiy podadan yaroqsiz qilingan (boquvga qo'yilmasdan) katta yoshdagi qoramollar, sotish uchun chetdan qabul qilingan qoramollar;
- v) detallar, uzellar, buyumlarning tugallanmagan ishlov berilishi va yiqilishi hamda tugallanmagan texnologik jarayonlar ko'rinishida tugallanmagan ishlab chiqarish. Ishlarni bajaradigan va xizmatlar ko'rsatadigan tashkilotlarda tugallanmagan ishlab chiqarish ular bo'yicha qabul qilish-topshirish hujjatlari rasmiylashtirilmagan va tashkilot tomonidan tegishli daromad tan olinmagan tugallanmagan ishlar (xizmatlar)ni bajarishga doir xarajatlardan tashkil topadi;
- g) tashkilotda tayyorlangan tayyor mahsulot (ishlab chiqarish siklining pirovard natijasi - sotish uchun mo'ljallangan va qonun hujjatlari bilan belgilangan hollarda shartnomada yoki boshqa hujjatlarning talablarida nazarda tutilgan

⁴ O'zbekiston Respublikasining Buxgalteriya Hisobi Milliy standartlari O'zBAMA nashriyot-axborot markazi - Toshkent, 2007 - 198 b.

texnik va sifat tavsiflariga muvofiq keladigan ishlov berilishi (butlanishi) tugallangan aktiv);

d) boshqa yuridik yoki jismoniy shaxslardan xarid qilingan (olingan) va tashkilotning odatdagi faoliyati davomida qo'shimcha ishlov berishsiz sotish yoki qayta sotish uchun mo'ljallangan tovarlar. Bunda uzoq muddatli aktivlar ob'ektlari (binolar, inshootlar, transport vositalari, mulkiy (mutlaq) huquqlar va boshqalar) keyinchalik sotish yoki qayta sotish maqsadida xarid qilingan hollarda tovar bo'lib hisoblanishi mumkin.

“Inventar va xo'jalik anjomlari tarkibiga quyidagi mezonlardan biriga javob beradigan aktivlar kiritiladi:”⁵

a) xizmat muddati bir yildan oshmaydigan;

b) qiymati bir birlik (komplekt) uchun xizmat muddatidan qat'i nazar, O'zbekiston Respublikasida belgilangan (xarid qilish paytida) eng kam ish haqining ellik baravarigacha miqdorda bo'lgan buyumlar. Tashkilot rahbari hisob siyosatida ularni inventar va xo'jalik anjomlari tarkibida hisobga olish uchun buyumlar qiymatining bundan past chegarasini belgilash huquqiga egadir.

Xizmat muddati va qiymatidan qat'i nazar inventar va xo'jalik anjomlari tarkibiga quyidagilar kiritiladi:

a) maxsus asboblari va moslamalar (muayyan buyumlarni turkumli va ommaviy ishlab chiqarish yoki yakka tartibdagi buyurtmani tayyorlash uchun mo'ljallangan maqsadli vazifadagi asboblari va moslamalar);

b) maxsus va sanitariya kiyimlari, maxsus poyabzal;

v) ko'rpa-to'shaklar;

g) yozuv-chizuv anjomlari (kalkulyatorlar, stol ustiga qo'yiladigan asboblari va hokazo);

d) oshxona inventari, shuningdek sochiq-dasturxonlar;

⁵BHMS № 4 «Tovar-moddiy zaxiralar». O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi tomonidan 2006-yil 17-iyulda ro'yxatga olingan, № 1595.

e) ularni barpo etish xarajatlari qurilish-montaj ishlarining tannarxiga kiritiladigan vaqtinchalik (titulda bo'lmagan) inshootlar, moslamalar va qurilmalar;

j) foydalanish muddati bir yildan kam bo'lgan almashtiriladigan uskunalar;

z) ovlashqurollari (trallar, yoyma to'rlar, to'rlar, anjomlar, matraplar va hokazo).

Tovar-moddiy zaxiralar hisobini to'g'ri va to'laqonli tashkil etish maqsadida ularni ilmiy asoslangan tasnifi va baholanishi muhim ahamiyatga ega.

Egalik qilish xususiyatiga muvofiq, moddiy-ishlab chiqarish zaxiralari tashkilotga egalik huquqi hamda xo'jalik yuritish yoki operativ boshqarish huquqi bo'yicha tegishli (xususiy) va unga ushbu huquqlar bo'yicha tegishli bo'lmagan (xususiy bo'lmagan) boyliklarga bo'linadi (3-chizma).


Tashkilotlarga tegishli bo'lgan tovar-moddiy boyliklarga u tomondan tayyorlangan, sotib olingan yoki boshqa shaklda olingan boyliklar kiritilib, ular omborda yoki ishlab chiqarish jarayonida joylashgan bo'ladi.

Tashkilotga egalik huquqi va boshqa shunga o'xshash huquq bo'yicha tegishli bo'lmagan, biroq shartnoma shartlari bo'yicha uning ixtiyoridagi tovar-moddiy boyliklar kiritilib, ular alohida turlari bo'yicha balansdan tashqari schyotda hisobga olinadi.

Yuqorida keltirgan ta'rif va tavsiflarni o'rganish natijasida tovar-moddiy zaxiralarning xo'jalik yurituvchisub'ektlarining faoliyatiga xos quyidagi ta'rifni taklif etamiz.

Tovar-moddiy zaxiralar - bu kapital doiraviy aylanishining birinchi bosqichidagi moddiy aktivlar, ya'ni hali ishlab chiqarish jarayoniga berilmagan va o'zlarining natural-moddiy shaklini to'liq, saqlab turgan ishlab chiqarish zaxiralari; asosiy podaga o'tkazish yoki sotish maqsadida o'stirilayotgan va boquvdagi chorva mollari; ishlab chiqarishdan olingan tayyor mahsulotlar; sotish uchun mo'ljallangan tovarlar; tugallanmagan ishlab chiqarish va yarim tayyor mahsulotlar hamda ishlab chiqarishdagi brakdan iborat.


Tovar-moddiy zaxiralar egalik qilish xususiyatiga ko'ra quyidagicha tasniflanadi. (3-chizma)



3-chizma. Egalik qilish xususiyati bo'yicha tovar-moddiy zaxiralarni tasniflash⁶

⁶Haydarov Sh. Tuxsanov H. Tovar moddiy zaxiralarning tasnifi va ularning buxgalteriya hisobi uslubiy asoslari // Soliq solish va buxgalteriya hisobi. Toshkent, 2006. – No4. – 10 b.

Tovar-moddiy zaxiralarni ishlatilish tartibiga ko'ra quyidagicha tasniflash mumkin. (4-chizma)



4- chizma. Tovar-moddiy zaxiralarni ishlatilish tartibiga qarab tasniflash⁷

Tovar-moddiy zaxiralari bo'yicha buxgalteriya hisobining asosiy vazifalariga quyidagilar kiradi:

- Tovar-moddiy zaxiralarni ularning mohiyatini ochib beruvchi mezonlariga mos ravishda hisobga olish;
- Tovar-moddiy zaxiralarni to'g'ri turkumlash va guruhlariga ajratish;
- Tovar-moddiy zaxiralarni to'g'ri baholash;
- Tovar-moddiy zaxiralarga qilingan qo'shimcha xarajatlarni (tashib keltirish, boj va soliq to'lovlari, kurs o'rtasidagi farqlar, ustamalar,

⁷Haydarov Sh. Tuxsanov H. Tovar moddiy zaxiralarning tasnifi va ularning buxgalteriya hisobi uslubiy asoslari // Soliq solish va buxgalteriya hisobi. – Toshkent, 2006. - №4. – 11 b.

sertifikatsiyalash va boshqalar) to'g'ri hisobga olish, ularni o'z vaqtida sotib olingan zaxiralar tannarxiga (qiymatiga) yoki korxonada xarajatlariga kiritish;

➤ Tovar-moddiy zaxiralari holati va harakatini to'g'ri, o'z vaqtida va tegishli boshlang'ich hujjatlar bilan rasmiylashtirib hisobga olish;

➤ Tovar-moddiy zaxiralariga moddiy javobgarlikni ta'minlash, moddiy javobgar shaxslar tomonidan hisobotlarning to'g'ri va o'z vaqtida tuzilishi, taqdim etilishini nazorat qilish;

➤ Tovar-moddiy zaxiralarining holati va harakati bo'yicha moddiy javobgar shaxslarning hisobot ma'lumotlari va hisob ma'lumotlarining to'liq uyg'unligini ta'minlash;

➤ Tovar-moddiy zaxiralarining butligini ta'minlash, buning uchun ularni belgilangan muddatlarda qayta ro'yxatdan o'tkazish (inventarizatsiya qilish), uning natijalarini to'g'ri aniqlash va hisobga olish;

➤ Mavjud tovar-moddiy zaxiralaridan unumli foydalanish, buning uchun omborlarda me'yorida ortiq zaxiralarni saqlamaslik, ularni qo'shimcha nobudgarchiliklariga yo'l qo'ymaslik, keraksiz materiallarni sotish va uning natijalarini to'g'ri hisobga olish;

➤ Tovar-moddiy zaxiralarini asosli ravishda qayta baholash va uning natijalarini hisobda to'g'ri aks ettirish;

➤ Arzon baholi buyumlarning eskirishini to'g'ri hisoblash, to'liq eskirgan buyumlarni o'z vaqtida hisobdan chiqarish, ularni balans qiymatini hisobotda to'g'ri aks ettirish;

➤ Moddiy-texnika ta'minoti rejasining bajarilishi ustidan nazorat olib borish;

➤ Materiallarning ishlab chiqarishga to'g'ri berilishi va ularni sarflash me'yoriga rioya qilish ustidan nazorat olib borish;

➤ Mahsulot tannarxini hisoblashda sarflangan TMZlarni kalkulyasiya ob'ektlarida to'g'ri taqsimlash.

1.2.Tovar moddiy zaxiralarning guruhlanishi va baholanishi.

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning xo'jalik mulkiga egalik qilish, ishlab chiqariladigan mahsulotlariga qarab tovar-moddiy zaxiralarini quyidagi guruhlarga bo'lish mumkin:


- xom-ashyo va asosiy materiallar;
- yordamchi materiallar;
- yoqilg'i ehtiyot qismlar;
- idish va idish materiallari;
- sotib olingan tayyor mahsulotlar;
- qaytariladigan ishlab chiqarish chiqindilari;
- boshqa materiallar.

Tovar-moddiy zaxiralarini holatini o'rganishda hisobni yuritilishiga alohida e'tibor berish kerak. Qabul qilingan "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonun, "Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida" Nizom hamda buxgalteriya hisobida qabul qilingan xalqaro va milliy standartlarda tovar-moddiy zaxiralari bo'lgan savollar o'z yechimini topgan.

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar amaliyotida tovar-moddiy zaxiralarning quyidagi guruhlari mavjud.(5-chizma.)

Materiallarni buxgalteriya hisobida to'g'ri baholash muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ishlab chiqarish zaxiralarini baholash "Tovar-moddiy zaxiralar" nomli 4-son BHMSga asoslangan bo'lishi lozim. Ushbu standartga muvofiq materiallar eng kam bahoda, ya'ni tannarxi bo'yicha yoki sof sotish qiymatida hisobga olinishi lozim. Chunki buxgalteriya hisobining ehtiyotkorlik tamoyilini aks ettirishning biri bo'lib past baholash qoidasi hisoblanadi: tannarx bo'yicha yoki sotishning sof qiymati.

Tovar-moddiy zaxiralarning hisobini yuritish jarayonida ular quyidagi tartibda, ya'ni tovar-moddiy zaxiralar quyidagilarning eng kam qiymati bo'yicha baholanadi:



5-chizma. Tovar-moddiy zaxiralarning asosiy guruhlari.

- a) tannarx bo'yicha mahsulotlarni ishlab chiqarish yoki moddiy zaxiralarning xarid bahosiga transport-tayyorlov sarflari qo'shilgan holda;
- b) sof realizasiya qiymati bo'yicha kelishilgan bahodan ularni sotishga tayyorlash va sotish bilan bog'liq sarflarni chegirandan keyin qolgan qiymatda.

Tovar-moddiy zaxiralarni tannarx bo'yicha baholash tartibida tovar-moddiy zaxiralarning tannarxi quyidagilardan tashkil topadi:

- a) tovar-moddiy zaxiralarning sotib olish xarajatlari, jumladan, xarid qiymati (schyot-fakturada ko'rsatilgan summadan xarid chegirmalarining ayirmasi), bojxona to'lovlari va boshqa soliqlar (qoplashga mo'ljallanganlarning ayirmasi bilan), fraxt qiymati (yuklash, tushirish ishlari va tovarning yo'ldagi sug'urtasini hisobga olgan holda), xarid bilan bevosita bog'liq bo'lgan boshqa xarajatlardan;

b) qayta ishlash xarajatlari va tayyor mahsulotlarni ishlab chiqarish bilan bevosita bog'liq xarajatlardan, jumladan:

1. xom-ashyo va materiallarni tayyor mahsulotga aylantirishda stanok va asbob-uskunalarda bevosita band bo'lgan ishchilarning mehnat haqini to'lash va ijtimoiy sug'urtalash xarajatlari;

2. xom ashyo va materiallarni tayyor mahsulotga aylantirish uchun sarflangan doimiy va o'zgaruvchan ishlab chiqarishning ustama xarajatlarni doimiy tartibda taqsimlashdan iborat.

v) joriy davrda TMZni tayinlangan joyga eltib berish uchun transportirovka yoki ularni kerakli holatga keltirish jarayonida (tayyor mahsulotni omborga olib borish, tovarni shaxsiy buyurtmalar asosida bichish va yig'ish xarajatlari va boshqalar) sarflangan boshqa xarajatlar.

Odatda buxgalteriya hisobi va soliq solish amaliyotida tovar-moddiy zaxiralarni sotib olish qiymati (yetkazib beruvchi to'lanadigan summalar) va ularni sotib olish bilan bog'liq barcha xarajatlar tovar-moddiy zaxiralarning sotib olish qiymati deb ataladi.

Tovar-moddiy zaxiralarni sotib olish bilan bog'liq bo'lgan va ularning tannarxiga kiritiladigan xarajatlarga (ya'ni sotib olish qiymatiga) quyidagilar kiradi:

- boj to'lovlari va yig'implari;
- bir birlik tovar-moddiy zaxira sotib olishdagi soliqlar va yig'implar summasi (agar ular korxonaga qoplanmasa);
- tovar-moddiy zaxiralarni sotib olishda qatnashgan ta'minotchi va vositachi korxonalarga to'lanadigan komission mukofotlar;
- tovar-moddiy zaxiralarni sertifikatsiya qilish va ularni sotib olish bilan bog'liq texnik sharoitlarga muvofiq sinovdan o'tkazish bo'yicha xarajatlar;
- tovar-moddiy zaxiralarni tayyorlash va ulardan kundalik foydalanish manziliga yetkazib berish bilan bog'liq xarajatlar. Ularga transport-tayyorlov xarajatlari, yuklash-tushirish ishlari uchun tariflarni to'lash (fraxt) hamda tovar-moddiy zaxiralarni kundalik foydalanish joyiga transportirovka qilish, shuningdek,

tovar-moddiy zaxiralarni transportirovka qilish tavakkalchiliklarini sug'urtalash bo'yicha xarajatlar kiradi;

- tovar-moddiy zaxiralarni sotib olishga bevosita bog'liq bo'lgan boshqa xarajatlar.

Tovar-moddiy zaxiralarni sotib olish xarajatlari ularni paydo bo'lishini tasdiqlovchi boshlang'ich hujjatlarga asosan aniqlanadi.

Tovar-moddiy zaxiralarning tannarxini hisoblash usullari quyidagilardan tashkil topgan:

a) yalpi identifikasiya usuli, aniq xarajatlarga asoslangan bo'lib o'zaro almashtirilmaydigan konkret birliklari maxsus individual buyurtmalar bo'yicha ishlab chiqarilgan mahsulot, tovarlar va xizmatlarning tannarxini hisoblash uchun qo'llaniladi.

b) o'rtacha tortilgan qiymat usuli - TMZ har bir birligining qiymati hisobot davrining boshida bir turli TMZ birliklari va hisobot davri davomida sotib olingan yoki ishlab chiqarilgan bir turli TMZ birliklarining o'rtacha tortilgan qiymati bo'yicha aniqlanadi. TMZ birligining o'rtacha tortilgan qiymati TMZning butun qiymatini ushbu zaxiralar birliklarining soniga bo'lish bilan aniqlanadi.

v) birinchi xarid baholari bo'yicha baholash usuli (FIFO - birinchi kirim birinchi chiqim) birinchi navbatda sotib olingan tovarlarning tannarxi birinchi navbatda sotib yuborilgan tovarlarga olib borilishi kerak degan tartibga asoslangan.

g) oxirgi xarid narxlari bo'yicha baholash usuli (LIFO) - oxirgi xarid qilingan tovarlarning tannarxi birinchi navbatda sotilgan tovarlarning qiymatini aniqlash uchun, hisobot davrining oxiriga bo'lgan zaxiralarning tannarxi esa birinchi navbatda xarid qilingan tovarlarning tannarxi asosida hisobga olinadi, degan taxminga asoslangan.

Masalan: Tovar-moddiy zaxiralarning tannarxini hisoblash usullari.

"Bunyodkor Qurilish-Montaj" korxonasi yil davomida quyidagi TMZni xarid yil oxirida omborxonada 400 birlik mahsulot bor edi. Realizasiyadan kelgan sof tushum 2500000 so'mni tashkil etdi.

1. Birinchi xarid narxlarida baholash usuli (FIFO) ni qo'llab, sotilgan mahsulotning tannarxini va davr oxiridagi zaxiralarga taqsimlangan xarajatlar quyidagi tartibda aniqlanadi:

1-jadval.

	Birliklarning hajmi	Mahsulot birligining bahosi	Umumiy qiymat
17yanvar	600	1100 so'm	660000 so'm
28 aprel	800	1200 so'm	960000so'm
9 sentabr	700	1500 so'm	1 050000 so'm
Jami:	2100	-	2 670 000 so'm

Realizasiyadantushgandaromad	2500000
Sotishgatayyormahsulotlarningtannarxi	2670000
DavroxiridagiTMZ (400x1500 so'm)	600000
Sotilganmahsulotlarningtannarxi	2070000
Realizasiyadanolinganyalpifoyda	430000

2. O'rtachatorilganqiymatusuliniqo'llab, sotilganmahsulotningtannarxinivahisobotdavriningoxiridagizaxiralargataqsimlangan xarajatlar quyidagi tartibda aniqlanadi:

Tovar birligining o'rtacha hisoblangan qiymati $(2670000/2100)$ 1271,4 so'm

Realizasiyadan tushgan daromad	2500000
Sotishga tayyor mahsulotlarning tannarxi	2670000
Davr oxiridagi TMZ (400x1271,4)	508560
Sotilgan mahsulotlarning tannarxi	2161380
Realizasiyadan olingan yalpi foyda	338620.

3. Oxirgi xarid narxlarida baholash usuli (LIFO)ni qo'llab, sotilgan mahsulotlarning tannarxi va davr oxiridagi zaxiralarga taqsimlangan xarajatlar quyidagi tartibda aniqlanadi:

Realizasiyadan tushgan daromad	2500000
Sotishga tayyor mahsulotlarning tannarxi	2670000
Davr oxiridagi TMZ (400x1100) tannarxi	440000
Sotilgan mahsulotlarning tannarxi	2230000

Sotuvdan kelgan yalpi foyda

270000

Usullarni taqqoslash

2-jadval

Ko'rsatkichlar Usullar	FIFO usuli	O'rtacha tortilgan qiymat usuli	LIFO usuli
Realizatsiyadan tushgan daromad	2500000	2500000	2500000
Sotishga tayyor mahsu- lotlarning tannarxi	2670000	2670000	2670000
Davr oxiridagi TMZ tannarxi	600000	508560	440000
Sotilgan mahsulotlar-ning tannarxi	2070000	2161380	2230000
Realizatsiyadan olinganyalpi foyda	430000	338620	270000

Tovar-moddiy zaxiralarni sof realizatsiya qiymati bo'yicha baholash.

Tovar-moddiy zaxiralar shikastlanganda, qisman yoki butunlay eskirganda, komplektlashga yoki sotuvni tashkil qilish xarajatlari oshganda, sotuv narxi pasaygan holatlarda, tovar-moddiy zaxiralari o'z tannarxidan past bahoda realizatsiya qiymatida baholanishi mumkin.

Sof realizatsiya qiymati - tovar sotilishining taxminiy qiymatidan tovarlarni sotuv oldidan tayyorlash va uni sotish xarajatlarining ayirmasidir.

Tovar-moddiy zaxiralari sof realizatsiya qiymatigacha quyidagi usullar asosida qisman hisobdan chiqariladi:

- a) moddalar bo'yicha usuli - bunda tovar-moddiy zaxiralarning har bir turi baholanadi;
- b) asosiy tovar guruhlarining usuli - bunda tovar-moddiy zaxiralarning guruh baholanadi;
- v) zaxiralarning umumiy darajasi usuli - bunda hamma tovar-moddiy zaxiralari baholanadi.

Tovar-moddiy zaxiralar xo'jalik sub'ektining o'zida tayyorlanganda ularning haqiqiy tannarxi deb ularning ishlab chiqarish tannarxi qabul qilinadi, tovar-moddiy zaxiralarning ishlab chiqarish tannarxi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 5 fevralda 54-son qarori bilan tasdiqlangan "Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida"gi Nizomga muvofiq aniqlanadi.

Tovar-moddiy zaxiralarning ular buxgalteriya hisobiga qabul qilingan haqiqiy tannarxi O'zbekiston Respublikasi Qonunchiligi va tegishli standartda belgilangan holatlardan tashqari, o'zgartirilmaydi.

Tovar-moddiy zaxiralarning ular buxgalteriya hisobiga qabul qilingan haqiqiy tannarxi tovar-moddiy zaxiralarni qayta baholash natijasida o'zgartirilishi mumkin.

Shunday qilib, tovar-moddiy zaxiralarni baholash ularni tashkil etish va boshqarishning muhim dastlabki sharti hisoblanadi.

1.3. Inventarizatsiyaning iqtisodiy mohiyati va ahamiyati.

Hozirgi iqtisodiy sharoitda har bir xo'jalikdagi mablag'larni o'rganish harakatini davr talabi bo'lib hisoblanadi. Chunki mablag'larni qay tarzda foydalanish korxonaning moliyaviy natijasiga kata bog'liqdir.

Chunki tovar-moddiy zaxiralarning ishlab chiqarish korxonalarida xarajatlar qismini asosini tashkil qiladi. Shuning uchun ham doimiy ravishda tovar-moddiy zaxiralarni ishlatilishi, qoldig'i, harakatini doimiy nazoratga olish zarurdir. Shuning uchun ham vaqti-vaqti bilan korxonalarining o'zlarida yil davomida foydalanilishini tahlil qilish zarur hisoblanadi. Tahlil uchun ma'lumotlar inventarizatsiya yo'li orqali olib boriladi.

Inventarizatsiya termini «inventar» (lotincha – inventorum) so'zidan kelib chiqqan bo'lib, buyumlarni ro'yxatga olish degan ma'noni anglatadi. Inventarizatsiya, bu o'rganilayotgan ob'ektlarni haqiqiy holida ko'rib sanash va o'lchab o'rganish usuli bo'lib, nazoratning muhim bir qismidir.

Inventarizatsiyaning mohiyati shundan iboratki, bunda taftish qilinayotgan har bir konkret ob'ekt ko'rib chiqish, sanash, o'lchash, tortish, hisoblash yo'llari bilan o'rganiladi.

Inventarizatsiya tushunchasi tor ma'noda, ya'ni nazorat qilinayotgan ob'ektlarni haqiqiy holda ko'rib chiqish ma'nosida qo'llanadiki, bundan inventarizatsiyaning tekshirilayotgan ob'ektlarining mavjud holatini o'rganish, ularga son va sifat jihatdan tavsif berish vazifasi kelib chiqadi.

Inventarizatsiya amalda nazoratning boshqa usullari bilan uzviy bog'liq holda olib boriladiki, bu uning ta'sirchanligini yanada oshiradi. Masalan, inventarizatsiya natijasida tekshirilayotgan ob'ektning haqiqiy va hisobot ko'rsatkichlari o'rtasida farq chiqsa, darhol hujjatlarni tekshirish yo'li bilan bunday farqning kelib chiqish sabablari aniqlanadi.

Inventarizatsiya o'tkazishning texnikaviy elementlari butun xalq xo'jaligi yoki uning ayrim tarmoqlari miqyosida bir xil normativ qoida sifatida qonun bilan tasdiqlangan va bu masala buxgalteriya hisobotlari va balanslari to'g'risidagi Nizomda to'la o'z aksini topgan. Inventarizatsiya faqat ma'muriyat tomonidan qabul qilingan qaror yoki buyruq asosida tuzilgan maxsus komissiya tomonidan o'tkazilishi mumkin. Bunday komissiya tarkibida ish faoliyati albatta tekshirilayotgan moddiy javobgar yoki mas'ul shaxs ishtirok etishi albatta shart. Inventarizatsiya to'satdan va har bir ob'ektni ko'z bilan ko'rib, sanab o'tkaziladiki, bu uning natijalarining ob'ektivligini ta'minlaydi. Inventarizatsiya albatta takrorlash tartibida, ya'ni tekshirish ob'ektlari ham komissiya tomonidan, ham javobgar shaxs tomonidan to'liq ko'rib, o'lchanib, sanab yoki tortilib o'tkazilishi lozim.

Inventarizatsiya natijalari maxsus hujjat – oraliq inventarizatsiya aktida aks ettiriladi. Bu dalolatnoma har bir inventarizatsiya natijalariga javobgar shaxslar bo'yicha tuzilishi shart. Inventarizatsiya natijasida olingan haqiqiy ma'lumotlar buxgalteriya hisobi ma'lumotlari bilan solishtirilib, natija – ob'ektlarning kam yoki ortiqcha miqdori aniqlanadi. Bunda haqiqiy va hujjatli

nazoratning buxgalteriya hisobiga uzviy bog'liqligi yana bir bor namoyon bo'ladi.

Inventarizatsiya o'tkazilishi tartibiga ko'ra, rejali va rejasiz bo'lishi mumkin.

Nazorat organining nazorat-taftish ishlari rejasiga asosan o'tkaziladigan inventarizatsiya rejali inventarizatsiya deb ataladi. Inventarizatsiyaning bu turi korxonalar va xo'jaliklararo tashkilotlar taftish komissiyalari ish faoliyatida keng tarqalgan bo'lib, ko'p hollarda maxsus (shtatdagi) nazoratchilarning tekshirish o'tkazish rejalariga ham kiritiladi. Rejali inventarizatsiya buxgalteriya hisob tizimida muhim o'rin tutadi. Maxsus qarorga ko'ra, har bir xo'jalik mablag'lari va moddiy boyliklari turi bo'yicha ma'lum bir vaqt ichida inventarizatsiya o'tkazib turilishi kerak.

Xususan, qishloq xo'jaligi korxonalarida rejali inventarizatsiyalar o'tkazish bo'yicha hukumat qarori bilan quyidagi muddatli: asosiy vositalar (chorva mollaridan tashqari) – yilda kamida bir marta; bino va inshootlar – ikki-uch yilda bir marta; chorva mollari – har kvartalda; em-xashak, urug'li va o'g'itlar, ehtiyot qismlari, ta'mirlash materiallari – yilida kamida ikki marta; tayyor mahsulot va kam baholi buyumlar – yilda bir marta; neft mahsulotlari, pul mablag'lari va qimmatbaho qog'ozlar – har oyda; moliya-kredit organlari biri bilan hisob-kitoblar – har kvartalda va boshqa hisob-kitoblar bo'yicha yilda bir marta o'tkazilishi belgilab qo'yilgandir.

Inventarlash deb haqiqatda mavjud bo'lgan mol-mulk va moliyaviy majburiyatlarni ularni muayyan sanadagi buxgalteriya hisobi ma'lumotlari bilan taqqoslash yo'li bilan aniqlashtirishga aytiladi.

Inventarlash maqsadlari, uni o'tkazish qoidalari, tafovutlarni tartibga solish va inventarlash natijalarini rasmiylashtirish tartibi 19-son BHMS «Inventarlashni tashkil etish va o'tkazish» (O'zR AV tomonidan 02.11,1999 yilda 833-son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan) bilan tartibga solinadi.

Korxonalarining buxgalteriya hisobi va hisoboti ma'lumotlarining to'g'riligi ularning ishlab chiqarish zaxiralari inventarizatsiya qilish bilan

tasdiqlanadi. Ishlab chiqarish zaxiralarini inventarizasiya qilish "Inventarizasiyani tashkil etish va o'tkazish" nomli 19-son BHMS va "Tovar-moddiy zaxiralar" nomli 4-son BHMSlar bilan tartibga solinadi.

Inventarizasiyadan ko'zlangan asosiy maqsad - ishlab chiqarish zaxiralarining natura va qiymat ko'rinishida amalda mavjud ekanligina aniqlashdan iborat. Inventarizasiya qilish natijasida boyliklarning to'g'ri saqlanishi va berilishi, tarozi va o'lchov asboblarinng, hisob yuritish tartibi va boshqalar tekshiriladi.

Ishlab chiqarish zaxiralarini inventarizasiya qilish bir yilda kamida bir marta hisobotini tuzishdan oldin, lekin hisobot yilining 1-oktyabridan keyin amalga oshiriladi. Bundan tashqari, ishlab chiqarish zaxiralarining saqlanishini, ularni saqlash shart-sharoitlarini va omborda hisobga olish ahvolini nazorat qilish uchun inventarizasiyalar o'rtasidagi davrda muntazam tekshirishlar va materiallarni tanlab inventarizasiyalash o'tkazilishi kerak.

Quyidagi holatlarda inventarizasiya muddatidan oldin o'tkazilishi shart:

- Korxonada mol-mulkini ijaraga berish, sotib olish, shuningdek davlat korxonasini aksiyadorlik jamiyatiga aylantirish chog'ida;
- Tovar-moddiy boyliklar qayta baholanganda;
- Moddiy javobgar shaxs o'zgarganida;
- Talon-taroj qilish yoki suiiste'mol qilish, shuningdek boyliklarning buzilishi bilan bog'liq faktlar aniqlanganda;
- Yong'in yoki tabiiy ofatlar sodir bo'lganda;
- Korxonada tugatilayotganida tugatish balansini tuzish oldidan va boshqa hollarda.

Tekshirish ko'lamiga ko'ra inventarizasiya yoppasiga yoki tanlab o'tkaziladigan, o'tkazish vaqti bo'yicha rejalashtirilgan yoki to'satdan o'tkaziladigan inventarizasiyalarga bo'linishi mumkin.

Inventarizasiyani o'tkazishga korxonada rahbari va bosh buxgalteri rahbarlik qiladi. Ishlab chiqarish zaxiralarni inventarizasiya qilish inventarizasiya qiluvchi

ishchi komissiyalar tomonidan moddiy javobgar shaxs ishtrokida amalga oshiriladi.

Inventarlash davrida moddiy boyliklarning mavjudligi tarozida tortish, o'lchash usuli bilan aniqlanadi va ro'yxatda rasmiylashtiriladi. Ro'yxatni moddiy javobgar shaxs imzolaydi.

Inventarizasiya qilish natijasida materiallar bo'yicha hujjatlardagi ma'lumotlar va haqiqiy qoldiqlar orasida farq solishtiruv qaydnomasida rasmiylashtiradi. Ishlab chiqarish zaxiralarni inventarizasiya qilish aniqlangan haqiqiy mavjud mulk va buxgalteriya hisobi ma'lumotlari o'rtasidagi tafovutlar quyidagicha aks ettiriladi.

Quyidagi hollarda inventarlashni o'tkazish shart:

- mol-mulk ijaraga berilganda, sotib olinganda, sotilganda, davlat tasarrufidan chiqarilganda va xususiylashtirilganda;
- asosiy vositalar va tovar-moddiy boyliklar qayta baholanganda;
- moddiy javobgar shaxslar almashganda;
- o'g'irlik yoki suiiste'mol, shuningdek, boyliklarni ishdan chiqarish faktlari aniqlanganda;
- tabiiy ofatlar, yong'inlar, falokatlar yoki gayritabiiy sharoitlar yuzaga keltirgan boshqa favqulodda vaziyatlar yuz berganda;
- xo'jalik yurituvchi sub'ekt tugatilganda (qayta tashkil etilganda);
- yillik moliyaviy hisobotni tuzish oldidan.

Tovar-moddiy zaxiralar bir yilda kamida bir marta, asosiy vositalar ikki yilda kamida bir marta, kutubxona fondlari besh yilda bir marta, pul mablag'lari va pul hujjatlari, qat'iy hisobdagi blanklar oyda bir marta, yonilg'i-moylash materiallari, oziq-ovqat mahsulotlari har chorakda inventarlanadi.

Inventarlashni o'tkazish uchun korxonalar rahbarining buyrug'i bilan inventarlash komissiyasi tashkil etiladi, uning tarkibiga bosh (katta) buxgalter kiradi. Komissiyaga korxonalar rahbari yoki uning o'rinbosari boshchilik qiladi. Rahbarning buyrug'i bilan inventarlashni o'tkazish muddatlari, ob'ektlari va tartibi belgilanadi. Inventarlashni o'tkazishdan oldin tayyorgarlik ishi olib

boriladi. Inventarlashni boshlash oldidan barcha birlamchi hujjatlarga ishlov berish oxiriga yetkaziladi. Barcha tovar-moddiy boyliklar nomlari, nav va hajmlariga ko'ra joylashtirilishi kerak. Inventarlash boshlanishidan oldin komissiya moddiy javobgar shaxslardan barcha hujjtlar buxgalteriyaga yoki komissiyaga topshirilganligi va ularning javobarligiga kelib tushgan barcha boyliklar kirim qilinganligi, ishlatilganlari esa xarajatga o'tkazilib hisobdan chiqarilganligi xususidagi tilxatni oladi.

Inventarlash boyliklar joylashgan yerda o'tkaziladi, unda moddiy javobgar shaxslarning ishtirok etishi shart. Inventarlash vaqtida operasiyalar to'xtatib qo'yiladi.

Boyliklarning mavjudligiga inventarlash paytida ularni albatta sanash, tortish va o'lchash yo'li bilan belgilanadi. Moddiy boyliklar ko'p miqdorda bo'lgan hollarda ularni tanlab tekshirishga ruxsat beriladi. Qoplamasiz uyulib saqlanayotgan boyliklar texnik hisob-kitob yo'li bilan hisoblanadi.

Aniqlangan va hisoblab chiqilgan boyliklar maxsus inventarlash ro'yxatlarida batafsil qayd etiladi. Ro'yxatlarga komissiyaning barcha a'zolari va moddiy javobgar shaxslar imzo chekadilar. Ro'yxat oxirida moddiy javobgar shaxslar komissiya boyliklarni ularning ishtirokida tekshirganligini, komissiya a'zolariga nisbatan biror-bir da'volarining yo'qligi va ro'yxatda sanab o'tilgan boyliklarning mas'uliyatli saqlashga qabul qilinganligini tasdiqlaydigan tilxat beradilar.

Buxgalteriyada inventarlash ro'yxatlarining ma'lumotlari hisobda ko'rsatilgan qoldiqlar bilan solishtiriladi va tafovutlari (ortiqcha yoki kamomad) aniqlangan boyliklar bo'yicha solishtirish qaydnomalarini tuzadilar. Solishtirish qaydnomalarini komissiya va moddiy javobgar shaxslar imzolaydilar.

Inventarlash tugaganidan so'ng uning to'g'ri o'tkazilganligini nazoratlarida tekshirish amalga oshirilishi mumkin. Bunday tekshiruvlar natijalari dalolatnoma bilan rasmiylashtiriladi va maxsus daftarda qayd etiladi.

Inventarlash to'g'risidagi buyruq, inventarlash ro'yxati, solishtirish

qaydnomasi, inventarlash dalolatnomalari va nazorat tekshiruvlarini hisobga olish dafttarining namunaviy shakllari 19-son BHMSga ilovalarda keltiriladi.

Inventarlash va boshqa tekshirishlar paytida aniqlangan boyliklarning haqiqatda mavjudligi buxgalteriya hisobi ma'lumotlaridan farqlari quyidagicha tartibga solinadi:

— ortiqcha chiqqan asosiy vositalar, moddiy boyliklar, pul mablag'lari va boshqa mol-mulk kirim qilinishi va tegishli korxonaning moliyaviy natijalariga qayd etilishi, keyinchalik ortiqcha chiqish sabablari va aybdor shaxslar aniqlanishi kerak;

— belgilangan me'yorlar doirasida boyliklarning yo'qolishi rahbarning farmoyishiga ko'ra ishlab chiqarish va muomala chiqimlariga hisobdan o'chiriladi;

— yo'qolish me'yorlaridan ortiqcha boyliklar kamomadi, shuningdek, boyliklar buzilishdan ko'rilgan talafotlar aybdor shaxslarga yuklanadi;

— boyliklarning yo'qolish va boyliklar buzilishi tufayli talafotlar me'yorlaridan ortiqcha kamomadi, kamomad va buzilishlarning aniq aybdorlari aniqlanmagan hollarda, ishlab chiqarish va muomala chiqimlariga hisobdan chiqarilishi mumkin. Bunda ana shunday kamomad va talafotlarning oldini olish bo'yicha qabul qilingan choralar ko'rsatilishi kerak.

Inventarlash natijalari inventarlash tugagan oydagi hisob va hisobotda, yillik inventarlashda esa yillik moliyaviy hisobotda aks ettirilishi kerak.

Inventarlashlar natijalari ma'lumotlari inventarlashda aniqlangan natijalar qaydnomasida (19-son BHMS-ga 5-ilova) umumlashtiriladi.

Ishlab chiqarish zaxiralarning qonun hujjatlarida belgilangan tartibdatasdiqlangan me'yorlar doirasida tabiiy kamayishi, korxonalar rahbari ko'rsatmasi bo'yicha tegishli ravishda ishlab chiqarish xarajatlariga o'tkaziladi. Suiiste'mol qilishlar oqibatida yo'l qo'yilgan kamomad va yo'qotishlar aniqlangan taqdirda tegishli hujjatlar kamomad aniqlangandan so'ng 5 kun ichida tergov organlariga oshirilishi lozim, aniqlangan kamomad summasiga esa fuqarolik da'vosi qo'zg'atiladi. Aybdorlari aniqlanmagan o'g'irliklar bo'yicha

ko'rilgan zararlar foyda solig'i bo'yicha soliqqa tortiladigan bazaga "Xarajatlar tarkibi to'g'risidagi Nizom"ning 1-ilovasiga binoan kiritiladi.

Ishlab chiqarish zaxiralarini inventarizasiya qilish natijasida ortiqcha mol-mulk mavjudligi aniqlansa, u moliyaviy natijalarga kirim qilinadi.

II BOB. TOVAR MODDIY ZAXIRALAR HISOBI VA UNING INVENTARIZATSIYASINI TASHKIL ETISH.

2.1. Tovar-moddiy zaxiralar hisobi va uni yuritish usullari

«Korxonada buxgalteriyasida tovar-moddiy zaxiralarning kirim-chiqimlari xususidagi barcha birlamchi hujjatlar: manzil belgilari, imzolar, summalar va amalga oshirilgan tadbirlarning qonunga to'g'ri kelish-kelmasligi tekshiriladi».⁸

Kirim orderlaridagi yozuvlar tegishli to'lov hujjatlari, schyot-fakturalar, yukxatlar va boshqa hujjatlar bilan solishtiriladi. Noto'g'ri rasmiylashtirilgan hujjatlar qayta ko'rib chiqish uchun qaytariladi.

Buxgalteriyada tekshirishdan o'tkazilgan hujjatlar taksirovka qilinadi, ya'ni material miqdori uning narxiga ko'paytirilib, hujjat bo'yicha umumiy summa aniqlanadi. Keyin barcha kirim-chiqim hujjatlari omborlar, jamlama hisobvaraqlar bo'yicha guruhlariga ajratiladi, bu guruhlar esa hisob narxi bo'yicha kichik guruhlariga bo'linadi. Bu hujjatlarning yakunlari M-43 shaklidagi materiallarning jamlama hisobi jamg'aruv qaydnomasiga yozib qo'yiladi.

Transport-tayyorlov xarajatlarini hisobga olish. Materiallar mol yetkazib beruvchilardan sotib olinganida ko'p hollarda ularni sotib olish hamda tayyorlash bilan bog'liq operatsiyalar 1510-«Materiallarni tayyorlash va xarid qilish» hisobvarag'ida hisobga olinadi. Ushbu hisobvaraqlarning debetida 6010, 2310, 2010, 6990 va boshqa hisobvaraqlarning kreditlari bo'yicha materiallarning sotib olish qiymati shakllanadi. Shuningdek, bu yerda materiallar bilan bog'liq transport-tayyorlov xarajatlari ham ifodalanadi.

Bu hisobvaraqlarning kredit tomonida 1010-1090-hisobvaraqlarning debeti bo'yicha haqiqatda kelib tushgan va kirim qilingan materiallarning hisob qiymati aks ettiriladi.

Hisob narxlarida qabul qilingan materiallar va ularni sotib olish hamda tayyorlash qiymatlari orasidagi farq 1610-«Materiallar qiymatidagi og'ishlar» hisobvarag'iga o'tkaziladi va har oyning oxirida 1610-«Materiallar qiymatidagi

⁸ A. A. Karimov, F. Isloimov, A. Avdugulov «Buxgalteriya hisobi» T. 1. «Sharx» 2004.

og'ishlar» hisobvarag'ining debetida yig'ilgan summa ishlab chiqarishga va boshqa ehtiyojlarga sarflangan materiallarning qiymatiga mutanosib taqsimlanib, xarajatlar hisobvarag'iga ko'chiriladi.

1510-«Materiallarni tayorlash va xarid qilish» hisobvarag'i debetidagi qoldiq korxonaga hali kelib tushmagan yo'ldagi materiallar qiymatini ifodalaydi.

Materiallarning haqiqiy tannarxi tarkibiga transport-tayyorlov xarajatlari ham kiradi. Bularga materiallarning shartnoma qiymatidan tashqari ularni sotib olish bilan bog'liq barcha xarajatlar kiradi. Bu xarajatlar materiallarning turlari bo'yicha tegishli hisobvaraqlarda mavjud materiallarning umumiy hajmi bo'yicha transport-tayyorlov xarajatlari summasi va foizini hisoblab chiqaradi.

Bu narsa hisobot oyi davomida sarflangan materiallarga to'g'ri keladigan transport-tayyorlov xarajatlarini aniqlab hisobdan chiqarish uchun zarur.

Sarflangan materiallar qaysi hisobvaraqlarga o'tkazilgan bo'lsa, transport-tayyorlov xarajatlari summasi ham shu hisobvaralarga yoziladi. haqiqiy tannarxning rejadan oshish ulushini topish va hisobga olish ham shu tartibda bajariladi. Bu yerda farq shundaki, og'ishish (tejalgan yoki ortiqcha xarajat) bo'lishi mumkin. Ortiqcha xarajat transport-tayyorlov xarajatlariga o'xshab, reja tannarxini ko'paytiradi, tejalgan summa esa uni kamaytiradi. Tejalgan summa minus yoki qizil storno bilan yoziladi.

Quyidagi jadvalda «Bunyodkor Qurilish-Montaj» korxonasi bo'yicha transport-tayyorlov xarajatlari summasi va foizini hisoblab topish misoli keltirilgan (3-jadval).

Materiallar sarflanishini buxgalteriyada hisobga olish Materiallarning sarflanishini buxgalteriya hisobida hisobga olishning muhim xususiyatlari mavjud. Korxonada materiallar quyidagi maqsadlar tufayli hisobdan chiqib ketishi mumkin:

- ◆ ishlab chiqarishga sarflanganida;
- ◆ ortiqcha materiallar sotilganida va boshqa hollarda.

Ko'rsatkichlar	Materiallarni baholash	
	Shartnoma bahoda	Haqiqiy tannarxda
Oy boshiga qoldiq	10000	15000
Oy davomidagi kirim	50000	60000
Jami tushum (1+2)	60000	75000
Transport-tayyorlov xarajatlari:	15000	75000-60000
summada foizda	25	$(15000 \times 100) / 60000$
Hisobot oyida sarflandi	40000	45000
Oy oxiriga qoldiq	20000	30000

Ombordan ishlab chiqarishga materiallar sarflanganida quyidagi buxgalteriya provodkasi beriladi:

D-t Ishlab chiqarish xarajatlari (2010, 2310, 2510 va hokazo)

K-t 1010-«Xom ashyo va materiallar».

Hisob-kitobning jurnal-order shaklidagi korxonalarda ishlab chiqarish uchun sarflangan materiallarning ulgurji bahosi shartnoma yoki reja tannarxi bo'yicha 10-jurnal-order, boshqa maqsadlar uchun sarflangan materiallar esa 10/1-jurnal-orderga yoziladi.

Tovar-moddiy zaxiralardan to'g'ri foydalanish maqsadida har bir korxonada zarur bo'lmagan materiallarning bor-yo'qligini tekshirib ko'rishi lozim. Agar korxonada keraksiz yoki ortiqcha material borligi aniqlansa, uni boshqa korxonaga sotishi mumkin.

Masalan, korxonada haqiqiy qiymati 20000 so'mlik ortiqcha material borligi aniqlandi va korxonada uni 30000 ming so'mga boshqa korxonaga sotdi. Ushbu muomalalarga hisobda quyidagicha provodka beriladi:

◆ materialning haqiqiy qiymati hisobdan chiqarildi 20000 so'm:

D-t 9220-«Boshqa aktivlarning realizatsiyasi va boshqa chiqib ketishi»-20000 so'm;

K-t 1010- «Xom ashyo va materiallar»-20000 so'm.

◆ materialning sotish qiymati aks ettirildi 30000 so'm:

D-t 4890-«Boshqa shaxslarning qarzlari-ioriv aismi»-30000 so'm:

K-t 9220-«Boshqa aktivlarning realizatsiyasi va boshqa chiqib ketishi»-30000 so'm.

QQS hisoblandi 4000 so'm:

D-t 9220-«Boshqa aktivlarning realizatsiyasi va boshqa chiqib ketishi»-4000 so'm.


K-t 6410-«Budjetga to'lovlar bo'yicha qarzar»-4000 so'm.

◆ ortiqcha materiallarni sotishdan foyda olindi $(30000-20000-4000)=6000$ so'm:

D-t 9220-«Boshqa aktivlarning realizatsiyasi va boshqa chiqib ketishi»-6000 so'm;

K-t 9320-«Boshqa aktivlarning realizatsiyasi va boshqa chiqib ketishidan olingan foyda»-6000 so'm.

Tayyor mahsulot sotishning analitik va sintetik hisobi. Mahsulotning sotilishi korxonada mablag'lari aylanishining yakunlovchi jarayonidir. Bu jarayon korxonada tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotning xalq xo'jaligi iste'molida o'z o'rnini topganligini anglatadi. «hozirgi paytda korxonada ishini baholashda mahsulotning sotilishi asosiy ko'rsatkichlardan biri bo'lib hisoblanadi. Xalqaro hisobda mahsulot, tovarlar sotish, ishlar bajarish va xizmatlar ko'rsatishdan olinadigan tushumni belgilashning ikki usuli majud:



Kassa usuli - bunda sotuvdan olingan tushum, yuklab jo'natilgan mahsulot uchun haq sifatida pul kelib tushishiga qarab e'tirof etib boriladi.

Yuklab jo'natish usuli - bunda mahsulot xaridorlarga jo'natilib, ularga hisob-kitob hujjatlari (schyot-faktura, transport yukxatlari va boshqa shunga o'xshash hujjatlar) topshirilishiga qarab bu mahsulot sotilgan hisoblanadi.

«Kassa usuli qo'llanilganda mahsulotni topshirish va uni haqini to'lashga doir xo'jalik operatsiyalari bajarilgandan keyingina mahsulot sotish ishlari tugatilgan hisoblanadi. Agar mahsulot jo'natilib, uning puli xaridorlardan kelib tushmagan bo'lsa, sotish ishi yakunlangan deb hisoblanishi mumkin emas».⁹

Yuklab jo'natish usuli qo'llanilganda, mahsulot va tovar jo'natilib, ishlar va xizmatlar bajarilganidan keyin, ularning hisob-kitob hujjatlari xaridor (buyurtmachi)ga taqdim etilgan bo'lsa, ana shunday mahsulot (ish, xizmat)lar va tovarlar sotilgan hisoblanadi. Hisob-kitob hujjatlari xaridor (buyurtmachi)ga shartnomada ko'zda tutilgan usulda berilgan vaqtdan e'tiboran bu hujjatlar xaridor (buyurtmachi)ga taqdim etilgan hisoblanadi. Agar shartnoma shartlariga ko'ra xaridor (buyurtmachi) mahsulotni bevosita ishlab chiqaruvchi korxonaning o'zida qabul qilsa, u holda bunday mahsulot xaridor (buyurtmachi)ga topshirilib, shartnomada ko'zda tutilgan hujjatlar rasmiylashtirilib, hisob-kitob hujjatlari xaridor (buyurtmachi)ga yoxud uning vakiligi taqdim etilganidan keyin sotilgan hisoblanadi.

Demak, yuqorida aytilganlar asosida shunday xulosa qilish mumkinki, hozirgi xo'jalik yuritish sharoitida korxonalar va muassasalarda ishlab chiqarilgan mahsulot, bajarilgan ish va xizmatlar pulning qachon kelib tushishidan qat'iy nazar, ular xaridor korxonalarga jo'natilgan vaqtdan boshlab realizatsiya qilingan hisoblanadi.

«Asosiy xo'jalik faoliyatidan olingan daromad» nomli 2-son BHMSga muvofiq quyidagi shartlar bajarilganda, tovarlarni sotishdan tushgan daromadlari tan olinadi:

- ◆ xo'jalik yurituvchi sub'yekt tovarlarga egalik qilishning xatarlari va afzalliklarining ancha qismini xaridorga topshirganida;
- ◆ xo'jalik yurituvchi sub'yekt, odatda, mulkka egalik qilish bilan bog'liq bo'lgan darajadagi rahbarlik davomiyligini ham, sotilgan tovarlarni nazoat qilish samaradorligini saqlab qolmaganida;

⁹A.A.Karimov, F.Islomov, A.Avloqulov.«Buxgalteriya hisobi» T.; - «Sharq» 2004.

- ◆ daromad miqdori ishonchli darajada baholanganida;
- ◆ xo'jalik yurituvchi sub'yekt bitim bilan bog'liq iqtisodiy naf olish ehtimoli mavjud bo'lganida;
- ◆ bitim bilan bog'liq qilingan yoki kutilayotgan xarajatlar ishonchli darajada aniqlanadigan bo'lganida.

Asosiy xo'jalik faoliyatidan tushgan daromad operatsiya bilan bog'liq bo'lgan iqtisodiy naf xo'jalik yurituvchi sub'yekt tomonidan olingan taqdirdagina tan olinadi. Daromadga kiritilgan miqdorni undirish xususidagi noaniqlik vujudga kelgan taqdirda, qaytarilmagan miqdor yoki olish mumkin bo'lmagan miqdordagi pul dastlab tan olingan daromad miqdorini o'zgartirilishi sifatida emas, balki xarajat sifatida tan olinadi.

Korxonada ishni sotish rejasining bajarilishiga qarab baholash korxonada rahbarlarini mahsulot sotish va moliyaviy faoliyat masalalariga ko'proq e'tibor berishga chiqaradi hamda korxonaning bir maromda ishlashiga va yuqori sifatli mahsulot ishlab chiqarishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bular esa, o'z navbatida, korxonadagi ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligini oshirish imkonini beradi.

Xaridorlar tomonidan to'langan pul mol yetkazib beruvchi korxonaning hisob-kitob schyotiga kelib tushadi. Mol yetkazib beruvchi tashkilotlarning tayyor mahsuloti xaridorlar tomonidan shu mahsulotni tayyorlovchi korxonaning o'zida bevosita qabul qilib olinsa yoki u mahsulot tranzit usuli bilan (ta'minot sotish tashkilotlarining ishtirokisiz) jo'natilsa, mahsulotning xaridorga topshirilishi tegishli hujjatlar bilan rasmiylashtiriladi va u moliyaviy natijalarga kiritiladi.

Korxonada sotish uchun mo'ljallangan mahsulot (ish, xizmat) tovar mahsuloti deb nomlanadi. Tovar mahsuloti (ish, xizmat) tarkibiga quyidagilarni kiritish mumkin:

- ◆ buyurtmachi va xaridorlarga sotilgan tayyor mahsulot (ish, xizmat) va korxonaning o'zida ishlab chiqarilgan yarim fabrikat;

- ◆ xalq iste'moli tovarlari, chiqindilardan tayyorlangan ishlab chiqarish-texnika maqsadlariga mo'ljallangan buyumlar, yarim fabrikatlar hamda mahalliy xom ashyodan xalq iste'moli uchun tayyorlangan nooziq-ovqat (turlari) tovarlari;
- ◆ qishloq xo'jaligi mahsulotlari;
- ◆ sanoat xususiyatidagi ishlar va xizmatlar;
- ◆ o'z kapital qurilishi ehtiyojlariga sotiladigan mahsulot, ish va xizmatlar;
- ◆ o'z xizmatidagi ishlab chiqarishlar va xo'jaliklar ehtiyoji uchun berilgan mahsulot, sanoat xususiyatidagi bajarilgan ish va xizmatlar;
- ◆ sanoat xususiyatiga ega bo'lmagan ishlar va xizmatlarni amalga oshirilishi, qiymati xaridorlar tomonidan to'langan va komplektlash uchun sotib olingan buyumlar;
- ◆ o'z kuchi bilan chetga bajarilgan ilmiy-tadqiqot ishlari.

Mahsulot (ish, xizmat) sotilishi hisobini tashkil qilishda sotilgan mahsulot, tovarlar, ish va xizmatlarning har birining alohida turi bo'yicha yuritilib, sotilayotgan mahsulot, bajarilgan ish va xizmatlarning tarkibiy tuzilishi hamda ularning har birining umumiy sotilish summasidagi hissasi, har qaysining rentabellik darajasi va boshqa ma'lumotlar aks ettirilishi lozim.

Sotilgan mahsulot 9010-«Mahsulot sotishdan olingan daromadlar», 9020-«Tovarlarni sotishdan olingan daromadlar», 9030-«Bajarilgan ish va ko'rsatilgan xizmatlardan olingan daromadlar» hisobvaraqlarida hisobga olinadi. 9040-«Sotilgan tovarlarning qaytarilishi» va 9050-«Xaridor va buyurtmachilarga berilgan chegirmalar» hisobvaraqlarida sotilgan tovarlarning qaytarilishi hamda xaridor va buyurtmachilarga berilgan chegirmalar aks ettiriladi.

2.2. Tovar-moddiy zaxiralari harakatini hujjatlashtirish va ularning ombordagi hisobi.

Materiallar harakatini hisobi materiallarni hisobi bo'yicha asosiy nizom talablariga javob beradigan va axborotlarni avtomatlashtirishga moslashgan

tegishli hujjatlar bilan rasmiylashtirilishi talab etiladi. yoziladigan hujjatlarning nusxalar soni minimal bo'lib, EHMdan foydalanilsa bir nusxa, hisob qo'lda yuritilsa ikki nusxadan oshmasligi kerak. Materiallar harakati bilan bog'liq muomalalarni o'z vaqtida hujjatlarda rasmiylashtirish ularning hisobini to'g'ri yuritishni ta'minlaydi. Korxonalar materiallarning o'z vaqtida keltirilishini ta'minot bo'limi nazorat qilib boradi. Ta'minot bo'limi xodimlari mol yetkazib beruvchi korxonalar tomonidan shartnoma majburiyatlarining bajarilishini tekshirib, ularga materiallar kamomadi va sifati bo'yicha e'tirozlar va da'volar qo'yish, korxonaga o'z vaqtida yetib kelmagan yuklarni topish vazifalarini bajaradilar.

Mol yetkazib beruvchilarning shartnoma shartlariga rioya qilishlari ustidan nazorat olib borish ishlab chiqarishni to'xtovsiz, o'z vaqtida davom etishini ta'minlaydi.

Mol yetkazib beruvchilardan olingan schyot va boshqa hisob-kitob hujjatlari, eng avvalo, korxonaga buxgalteriyasiga topshiriladi, ular tekshiriladi, so'ngra o'z vaqtida ro'yxatga olinadi. Shundan so'ng bu hujjatlar korxonaning ta'minot bo'limiga topshiriladi. Har bir schyot bo'yicha uning to'lanishi yoki to'lanmasligi aniqlanadi. Agar shartnoma shartlariga mol yetkazib beruvchilar to'la amal qilgan bo'lsa, schyotni to'lashga rozilik beriladi. To'lanishi lozim bo'lgan schyot va boshqa hisob-kitob hujjatlari materialni qabul qilish uchun omborga beriladi. Materiallar korxonaga keltirilgunga qadar hamma hujjatlar maxsus papkada saqlanadi. O'z vaqtida yuborilmagan materiallar to'g'risida ombor mudiri korxonaning ta'minot bo'limiga tegishli chora ko'rilishi uchun xabar beradi. Odatda, mol yetkazib beruvchi korxonalardan materiallarni ta'minot bo'limi ekspeditori yetkazib beradi. Mol yetkazib beruvchi yoki transport tashkilotlaridan materiallarni qabul qilganda ta'minotchi idish, plomba, tamg'a hamda materiallar sifatini tekshiradi. Agar tekshirish natijasida kamomad yoki yuklar sifati buzilganligi aniqlansa, mol yetkazib beruvchi yoki transport tashkilotiga da'vo qo'yish huquqini beradigan dalolatnoma tuziladi.

Korxonaga o'zaro tuzilgan shartnomaga muvofiq mol yetkazib beruvchilardan kelgan materiallar uchun hisob-kitob, yuklash va boshqa yo'llanma hujjatlar (to'lov talabnomasi, schyot-faktura, tovar-transport yukxatlari) oladi.

Korxonaga kelgan hujjatlar operativ xodim tomonidan kelgan materiallarni qayd qilish uchun ochilgan M-1 shaklidagi maxsus daftarda ro'yxatga olinadi hamda shartnomada ko'zda tutilgan talablarga mos kelishi nazoratdan o'tkaziladi.

Mol yetkazib beruvchi yoki transport tashkiloti omboridan materiallarni olish uchun buxgalter ekspeditorga M-2, M-2a shakldagi ishonchnoma yozib beradi.

Moddiy boyliklarni olishga beriladigan ishonchnoma - korxonaga mol yetkazib beruvchilaridan tovar-moddiy boyliklarni olish uchun o'z vakiliga beradigan hujjatidir.

Korxonaga ishonchnomaning ikki - M-2 va M-2a shaklidan foydalanadi. M-2 shaklidan foydalanganida berish-olishlar haqidagi ma'lumotlar ishonchnoma varaqasining qo'shimcha qismiga (koreshogiga) yoziladi, bu holda berilgan ishonchnomani maxsus daftarga yozib qo'yishga hojat qolmaydi.

Korxonaga moddiy boyliklarni ommaviy tarzda ishonchnoma bilan oladigan hollarda M-2a shaklidagi ishonchnomadan foydalanadi. Berilgan ishonchnoma esa maxsus daftarda ro'yxatdan o'tkaziladi.

Ishonchnoma korxonaga rahbari va bosh buxgalteri tomonidan muhrlangan holda beriladi, so'ngra u M-2b shaklidagi maxsus daftarga qayd qilinadi. Ekspeditor esa ishonchnomani olishda daftarga imzo chekadi.

Ishonchnomani olgan xodim materiallarni olingandan keyingi birinchi kundan qoldirmasdan unga yuklatilgan vazifani bajarganligi hamda olingan materiallarni omborga topshirganligi to'g'risidagi hujjatlarni buxgalteriyaga topshirishi shart. Ishlatilmagan ishonchnomalar belgilangan muddati o'tib ketgandan keyingi kunda buxgalteriyaga topshiriladi. Muddati o'tib ketgan

ishonchnomalar bo'yicha hisobot bermagan shaxslarga yangi ishonchnomalar berish man qilinadi.

Materiallarni omborga ombor mudiri yoki omborchi qabul qiladi. Keltirilgan materiallar mol yetkazib beruvchining hujjatlari bilan muvofiq bo'lsa, omborchi M-4 shaklidagi kirim orderi tuzadi. Kirim operatsiyalari soni kam bo'lganida, mol yetkazib beruvchining hujjatiga muhr qo'yishga ruxsat etiladi. Haqiqatda kirim qilingan materiallar va yuborilgan hujjatlar orasida tafovut aniqlansa, materiallarni qabul qilish dalolatnomasi rasmiylashtiriladi. Bu dalolatnoma mol yetkazib beruvchi yoki boshqa manfaatdor bo'lmagan korxon vakillari ishtirokida tuziladi. Dalolatnoma tuzilganida kirim orderi rasmiylashtirilmaydi.

Ombordan sexlarga sarflash uchun beriladigan materiallarga limit-zabor kartalari, talabnoma hamda yukxatlar rasmiylashtiriladi. Materiallarning bir marotaba, kam takrorlanadigan xarajat qilinishi talabnomalar bilan rasmiylashtiriladi. Ushbu hujjat iste'molchi sex, bo'lim va uchastkalar tomonidan rasmiylashtiriladi.

Ombordan sexlarga materiallar muntazam berib borilsa, u holda limit-zabor kartalari qo'llaniladi. Limit-zabor kartasi korxonaning ishlab chiqarish yoki reja bo'limi tomonidan yoziladi. Unda shu sex yoki uchastkaga berilishi lozim bo'lgan material ma'lum turining oylik cheklangan me'yori ko'rsatiladi. Cheklangan me'yori sex yoki uchastkaning ishlab chiqarish rejasi va shu sex yoki uchastkada materiallarni sarflash me'yori asosida aniqlanadi. Limit kartasi ikki nusxada yoziladi, bir nusxasi omborga, ikkinchisi esa sexga beriladi. Materiallar berilgandan so'ng limit kartasining sex nusxasiga imzo qo'yadi, sex xodimi omborchining nusxasiga o'z imzosini qo'yadi.

Omborchi har bir operatsiyadan keyin foydalanilmagan limit qoldig'ini hisoblab chiqadi. Limit yetmagan taqdirda limitdan tashqari materiallar xarajati talabnoma bilan rasmiylashtiriladi.

Materiallarning sarflanishi bo'yicha limitning shu tariqa belgilanishi me'yordan ortiqcha sarflar haqida korxon rahbarlariga o'z vaqtida xabar qilish

imkonini beradi. Limit kartalarining qo'llanilishi hujjatlar sonini kamaytiradi va ularni qayta ishlashni yengillashtiradi.

Materiallarning ichki ko'chishida, ya'ni bir ombordan ikkinchi omborga, birsexdan ikkinchi sexga berilganida hamda chiqindilar omborga qabul qilinganida qabul qilish yukxatlari bilan rasmiylashtiriladi.

Ombor xodimlariga materiallarni boshqa hujjatlar bo'yicha hamda turli xatlar, og'zaki farmoyishlar asosida berish taqiqlanadi.

Korxonada omborida materiallarning but saqlanishini tashkil etish ularni to'g'ri hisobga olib borilishini ta'minlaydi. Shuning uchun ham ombor xo'jaligi ishlarini tashkil qilishga muayyan talablar qo'yiladi.

Korxonada omborida materiallarni hisobga olishning to'g'ri tashkil qilinishi materiallarni hisobga olish usuliga, hisob ro'yxati (registri)ning turiga, miqdoriga, foydalanilgan ko'rsatkichlarga va ularning o'zaro solishtirilishiga bog'liq. Korxonada ombori ixtisoslashtirilgan bo'lishi kerak, chunki xilma-xil materiallarning kimyoviy hamda fizik xossalari ularni turli xil sharoitlarda saqlashni talab qiladi. Omborxonada tegishli materiallar joylashtiriladigan stellajlar, tokchalar, shkaf va yashiklar bilan jihozlanishi lozim. Materiallarning har biriga ularning nomi, nomenklatura raqami, navi, o'lchami, o'lchov birligi ko'rsatilgan yorliq yozilib, saqlash joyiga yopishtirib qo'yiladi.

Tez yonishga moyil bo'lgan materiallar maxsus omborlarda saqlanishi lozim. Bu omborlar yong'inga qarshi qurilmalar bilan jihozlangan bo'lishi shart.

Ochiq havoda saqlanishi lozim bo'lgan materiallar omborxonada hovlisida maxsus ajratilgan, yog'ingarchilikdan saqlanadigan bostirmaga joylashtiriladi. Hamma omborxonalar tosh-tarozi, o'lchov idishlari va boshqa shunga o'xshash zarur moslamalar bilan ta'minlangan bo'lishi shart. Ombor mudiri moddiy ma'sul shaxs hisoblanib, omborxonada saqlanayotgan hamma materiallar harakati faqat u orqali amalga oshiriladi. Omborchini ishga olish, boshqa lavozimlarga o'tkazish va xizmat vazifasidan ozod qilish bosh buxgalter bilan kelishilgan holda amalga oshiriladi. Ombor mudirini ishga qabul qilishda uning

to'la ravishda shaxsiy moddiy javobgarligi haqida shartnoma tuziladi. Uni ishdan bo'shatish saqlanayotgan mollarning to'liq inventarizatsiyasi o'tkazilib, javobgarligi ostidagi moddiy boyliklar boshqa shaxsga o'tgandan keyingina amalga oshiriladi. Omborda materiallarning qoldiqlari to'g'risida to'liq malumot olish maqsadida ularni alohida turlari, navlari, razmeri va nomenklatura raqamlari bo'yicha hisobga olish zarur.

Buxgalteriya hisobini tashkil qilishda materiallar bo'yicha analitik hisobni to'g'ri yuritish muhim. Shu sababli ular hozirgi paytda uch xil usul bo'yicha yuritiladi:

- Materiallar harakatini hisobga oluvchi daftarda;
- Materiallar harakatini yurituvchi kartochkalarda;
- Operativ-buxgalterlik (qoldiq) usuli.

Materiallarni to'g'ri hisobga olishda ularning faktura bahosini aniqlash muhimdir. Xalqaro buxgalteriya hisobi standartlari bo'yicha materiallarni joriy hisobda hisobga olishda ularning haqiqiy qiymatini bilish juda muhim. Xalqaro savdo amaliyotidagi faktura bahosini aniqlashda moddiy qiymatliklar bahosi va qoplanadigan transport tariflari, yuklarning sug'urta to'lovlari, eksport soliqlari va bojxona yig'imlarining malum tartibda qoplanishi va uni tomonlar qoplanishini belgilash zarur.

Omborlarda materiallarning miqdor ko'rsatkichlaridagi hisobi yuritiladi. Buning uchun materiallarning har bir turiga yoki nomenklatura raqamiga M-17 sonli tipik shakldagi varaqlar ochiladi. Ular material harakati bilan bog'liq kirim va chiqim operatsiyalari bo'yicha rasmiylashtirilgan boshlang'ich hujjatlar asosida to'ldiriladi va har bir kirim hamda chiqim operatsiyalari yozilgandan keyin material qoldig'i aniqlanadi. Materiallarning ombordagi haqiqiy qoldig'i meyordagi qoldiq bilan solishtiriladi va o'rtadagi farqdan taminot bo'limi xodimlari xabardor qilinadi.

Kirim va chiqim operatsiyalari bo'yicha kundalik rasmiylashtirilgan boshlang'ich hujjatlar belgilangan muddatda korxonada buxgalteriyasiga topshiriladi.

Materiallarning ombordagi hisobi operativ buxgalteriya yoki boshqa usullar yordamida hisobga olinadi. Ushbu usullarning mohiyati shundan iboratki, bunda materiallarning ombordagi hisobi son shaklida, buxgalteriyada esa pul shaklida yuritiladi. Buxgalteriyada yuritiladigan hisob materiallarning harakati bo'yicha omborda rasmiylashtirilgan boshlang'ich hujjatlardagi malumotlarga asoslanadi. Omborlarda rasmiylashtirilayotgan boshlang'ich hujjatlarning to'g'ri yoki noto'g'riligini buxgalteriya xodimlari belgilangan muddatlarda tekshirib boradi va yozuvlar to'g'riligi ombor varaqalarining «nazorat» bo'limida imzo bilan tasdiqlanadi. Hisobot oyining oxirida ombordagi hisob buxgalteriyada yuritiladigan sintetik hisob malumotlari bilan taqqoslanadi. Buning uchun esa har bir ombor bo'yicha qoldiq vedomosti yuritiladi. Vedomostda ombor varaqalari asosida material qoldig'i yoziladi va u pul ko'rsatkichiga aylantiriladi. Qoldiq vedomostidagi material qoldig'ining umumiy summasi buxgalteriyada materiallar harakati bo'yicha yuritiladigan 10-vedomost malumotlari bilan solishtiriladi. Sonlarning to'g'ri kelishi hisobot oyi davomida omborda va buxgalteriyada yuritilgan hisobning to'g'riligidan dalolat beradi.

2.3. Tovar moddiy zaxiralari inventarizatsiyasi natijalarini buxgalteriya hisobida aks ettirish.

Korxonalarining buxgalteriya hisobi va hisoboti malumotlarining to'g'riligi ularning ishlab chiqarish zaxiralari inventarizasiya qilish bilan tasdiqlanadi. Ishlab chiqarish zaxiralarini inventarizasiya qilish “Inventarizasiyani tashkil etish va o'tkazish” nomli 19-son BHMS va “Tovar-moddiy zaxiralar” nomli 4-son BHMSlar bilan tartibga solinadi.

Inventarizasiyadan ko'zlangan asosiy maqsad – ishlab chiqarish zaxiralarining natura va qiymat ko'rinishida amalda mavjud ekanligina aniqlashdan iborat. Inventarizasiya qilish natijasida boylıklarning to'g'ri saqlanishi va berilishi, tarozi va o'lchov asboblarning, hisob yuritish tartibi va boshqalar tekshiriladi.

Ishlab chiqarish zaxiralarini inventarizatsiya qilish bir yilda kamida bir marta hisobotini tuzishdan oldin, lekin hisobot yilining 1-oktyabridan keyin amalga oshiriladi. Bundan tashqari, ishlab chiqarish zaxiralarining saqlanishini, ularni saqlash shart-sharoitlarini va omborda hisobga olish ahvolini nazorat qilish uchun inventarizatsiyalar o'rtasidagi davrda muntazam tekshirishlar va materiallarni tanlab inventarizatsiyalash o'tkazilishi kerak.

Tekshirish ko'lamiga ko'ra inventarizatsiya yoppasiga yoki tanlab o'tkaziladigan, o'tkazish vaqti bo'yicha rejalashtirilgan yoki to'satdan o'tkaziladigan inventarizatsiyalarga bo'linishi mumkin.

Inventarizatsiyani o'tkazishga korxonada rahbari va bosh buxgalteri rahbarlik qiladi. Ishlab chiqarish zaxiralarni inventarizatsiya qilish inventarizatsiya qiluvchi ishchi komissiyalar tomonidan moddiy javobgar shaxs ishtrokida amalga oshiriladi.

Inventarlash davrida moddiy boyliklarning mavjudligi tarozida tortish, o'lchash usuli bilan aniqlanadi va ro'yxatda rasmiylashtiriladi. Ro'yxatni moddiy javobgar shaxs imzolaydi.

Inventarizatsiya natijalari korxonada rahbari, bosh buxgalteri va inventarizatsiya komissiyasi raisi tomonidan imzolanadigan "Inventarizatsiya jarayonida aniqlangan natijalar vedomosti"da umumlashtiriladi. Ushbu vedomostda mol-mulkning har bir turi bo'yicha inventarizatsiya natijasida aniqlangan farqlar kamomad va ortiqchalar summalari va shuningdek aniqlangan kamomadlar summasini olib borish tartibi: turli sortlar bo'yicha o'zaro qoplash, tabiiy kamayish me'yorlari miqdorida hisobdan chiqarish, aybdor shaxslar hisobiga olib borish va boshqa operatsion xarajatlarga hisobdan chiqarish tartibi to'g'risidagi ma'lumotlar aks ettiriladi.

O'rtacha oylik ish haqi hajmidan ortiq bo'lmagan miqdorda yetkazilgan zarar summasini aybdor xodimdan undirilishi ish beruvchining farmoyishiga muvofiq amalga oshiriladi. Bunday farmoyish yetkazilgan zarar aniqlangan kundan boshlab bir oydan kechikmasdan chiqarilishi mumkin.

Bunda yetkazilgan zarar qiymati inventarizasiya o'tkazilgan davrda mazkur joyda amal qilayotgan bozor narxlari bo'yicha hisoblanadi.

Agar xodimdan undirilishi lozim bo'lgan yetkazilgan zarar summasi uning o'rtacha oylik ish haqidan yuqori yoki zarar aniqlangan kundan boshlab bir oylik muddat o'tgan bo'lsa, yetkazilgan zararining undirilishi sud orqali amalga oshiriladi.

Ish beruvchining mol-mulki o'g'irlanganda, kam chiqqanda, qasddan yo'qotish yoki qasddan buzish natijasida hamda boshqa hollarda yetkazilgan zarar qiymati bozor bahosi bo'yicha hisoblanadi.

Inventarizasiya jarayonida aniqlangan mol-mulkning bozor bahosini aniqlash uchun quyidagilardan foydalanish mumkin:

- a) ishlab chiqaruvchi tashkilotlardan va ularning rasmiy dillerlaridan, tovar xom-ashyo, ko'chmas mulk birjalaridan yozma shaklda olingan xuddi shunday mahsulotga doir narxlar to'g'risidagi ma'lumotlar;
- b) Markaziy bankning kamomad (ortiqcha) aniqlangan sanadagi va tegishli mulkni sotib olish sanasidagi kurslarning nisbati shaklida aniqlangan hisob-kitob koeffitsientini qo'llagan holda sotib olish sanasidagi (tasdiqlovchi hujjatlar mavjud bo'lganda) mol-mulklarning erkin konvertasiyalanadigan valyuta (EKV)dagi qiymati to'g'risidagi ma'lumotlar;
- v) tegishli davlat idoralarida mavjud bo'lgan narxlar darajasi to'g'risidagi ma'lumotlar;
- g) inventarizasiya o'tkazilayotgan davrda ommaviy axborot vositalari va maxsus adabiyotlarda e'lon qilingan narx darajalari to'g'risidagi ma'lumotlar;
- d) tegishli mol-mulkning qiymati to'g'risida baholovchining ekspert xulosasi.

Quyidagi holatlarda inventarizasiya muddatidan oldin o'tkazilishi shart:

- ❖ Korxonada mol-mulkini ijaraga berish, sotib olish, shuningdek davlat korxonasini aksiyadorlik jamiyatiga aylantirish chog'ida;
- ❖ Tovar-moddiy boyliklar qayta baholanganda;
- ❖ Moddiy javobgar shaxs o'zgarganida;

- ❖ Talon-taroj qilish yoki suiiste'mol qilish, shuningdek boyliklarning buzilishi bilan bog'lik faktlar aniqlanganda;
- ❖ Yong'in yoki tabiiy ofatlar sodir bo'lganda;
- ❖ Korxonada tugatilayotganida tugatish balansini tuzish oldidan va boshqa hollarda.

Inventarizatsiya qilish natijasida materiallar bo'yicha hujjatlardagi ma'lumotlar va haqiqiy qoldiqlar orasida farq solishtiruv qaydnomasida rasmiylashtiradi.

Ishlab chiqarish zaxiralarning qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tasdiqlangan me'yorlar doirasida tabiiy kamayishi, korxonada rahbari ko'rsatmasi bo'yicha tegishli ravishda ishlab chiqarish xarajatlariga o'tkaziladi. Suiiste'mol qilishlar oqibatida yo'l qo'yilgan kamomad va yo'qotishlar aniqlangan taqdirda tegishli hujjatlar kamomad aniqlangandan so'ng 5 kun ichida tergov organlariga oshirilishi lozim, aniqlangan kamomad summasiga esa fuqarolik da'vosi qo'zg'atiladi.

Aybdorlari aniqlanmagan o'g'irliklar bo'yicha ko'rilgan zararlar foyda solig'i bo'yicha soliqqa tortiladigan bazaga "Xarajatlar tarkibi to'g'risidagi Nizom" ning 1 – ilovasiga binoan kiritiladi.

Ishlab chiqarish zaxiralarini inventarizatsiya qilish natijasida ortiqcha mol-mulk mavjudligi aniqlansa, u moliyaviy natijalarga kiritiladi.

Inventarizatsiya jarayonida aniqlangan tovar-moddiy zaxiralarning kamomadi haqiqiy (balans) qiymati bo'yicha hisobdan chiqariladi va buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

debet 5910 "Kamomadlar va qiymatliklarning buzilishidan yo'qotishlar" schyoti;

kredit "Tovar-moddiy zaxiralarini hisobga oluvchi schyotlar" (1000-2900).

Moddiy javobgar shaxs (yoki boshqa xodim) aybdor deb tan olingan hollarda va agar baholash natijasida kam chiqqan tovar-moddiy zaxiralarning bozor qiymati (undiriladigan summa) kam chiqqan tovar-moddiy zaxiralarning haqiqiy

(balans) qiymatidan yuqori bo'lsa, daromad summasi buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

debet 4730 "Moddiy zararni qoplash bo'yicha xodimlarning qarzi" schyoti – aybdor shaxs yoki moddiy javobgar shaxsdan undirilishi lozim bo'lgan kam chiqqan tovar-moddiy zaxiralarining bozor qiymatiga;

kredit 5910 "Kamomadlar va qiymatliklarning buzilishidan yo'qotishlar" schyoti - kam chiqqan tovar-moddiy zaxiralarining haqiqiy (balans) qiymatiga;

kredit 9320 "Boshqa aktivlarning chiqib ketishidan foyda" schyoti - aybdor shaxs yoki moddiy javobgar shaxsdan undirilishi lozim bo'lgan kam chiqqan tovar-moddiy zaxiralarining bozor qiymati va kam chiqqan tovar-moddiy zaxiralarining haqiqiy balans qiymati o'rtasidagi farqiga.

Moddiy javobgar shaxs (yoki boshqa xodim) aybdor deb tan olingan hollarda va agar baholash natijasida kam chiqqan tovar-moddiy zaxiralarining bozor qiymati (undirladigan summa) kam chiqqan tovar-moddiy zaxiralarining haqiqiy (balans) qiymatidan past bo'lsa, ko'rilgan zarar summasi buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

debet 4730 "Moddiy zararni qoplash bo'yicha xodimlarning qarzi" schyoti - aybdor shaxs yoki moddiy javobgar shaxsdan undirilishi lozim bo'lgan kam chiqqan tovar-moddiy zaxiralarining bozor qiymatiga;

debet 9430 "Boshqa operasion xarajatlar" schyoti - aybdor shaxs yoki moddiy javobgar shaxsdan undirilishi lozim bo'lgan kam chiqqan tovar-moddiy zaxiralarining bozor qiymati va kam chiqqan tovar-moddiy zaxiralarining haqiqiy (balans) qiymati o'rtasidagi farqiga;

kredit 5910 "Kamomadlar va qiymatliklarning buzilishidan yo'qotishlar" schyoti - kam chiqqan tovar-moddiy zaxiralarining haqiqiy (balans) qiymatiga.

Kamomadning aniq aybdori topilmagan yoki moddiy javobgar shaxslardan undirib olish imkoni bo'lmagan hollarda, kam chiqqan tovar-moddiy zaxiralarining kamomadidan ko'rilgan zarar moliyaviy natijalarga olib boriladi va buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

debet 9430 "Boshqa operasion xarajatlar" schyoti;

kredit 5910 "Kamomadlar va qiymatliklarning buzilishidan yo'qotishlar" schyoti.

Inventarizasiya jarayonida aniqlangan hisobga olinmagan (ortiqcha) tovar-moddiy zaxiralari aniqlangan sanadagi aynan shunga o'xshash tovar-moddiy zaxiralarining bozor qiymati bo'yicha baholanadi (ortiqcha chiqish sabablari va aybdor shaxslar keyinchalik aniqlanadi) va buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

debet "Tovar-moddiy zaxiralarini hisobga oluvchi schyotlar" (1000-2900);

kredit 9390 "Boshqa operasion daromadlar" schyoti.

Aybdor shaxslar yoki moddiy javobgar shaxslardan kamomad summaning undirib olinishi buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

debet "Pul mablag'larini hisobga oluvchi schyotlar" (5000, 5200, 5600,5700)

yoki "Mehnat haqi bo'yicha xodim hisoblashishlarni hisobga oluvchi schyotlar" (6700), yoki boshqa aktivlarni hisobga oluvchi schyotlar;

kredit 4730 "Moddiy zararni qoplash bo'yicha xodimlarning qarzi" schyoti.

III BOB.TOVAR-MODDIY ZAXIRALAR AUDITI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH.

3.1. Tovar moddiy zaxiralar auditini rejalashtirishning tashkiliy-uslubiy asoslari.

Hozirgi rivojlangan iqtisodiy sharoitda xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda tovar-moddiy zaxiralarni qay darajada foydalanishni ularni hisobvaraqlarda aks ettirilganligini hamda korxonalar mol-mulklarini tekshirib turish natijasida auditorlik xizmatlaridan foydalanib turiladi.

Bizga ma'lumki, tovar-moddiy zaxiralar korxonaning aktivida hisobga olib boriladi. Umuman olganda, aktivlar, majburiyatlar, xususiy kapitalni tashkil topishi va ishlatilishini nazorat qilish buxgalteriya hisobini vazifasi hisoblanadi. Shuning uchun rivojlangan davlatlar kabi bizning respublikada ham hozirgi paytda auditorlik xizmatidan foydalanish korxonalaridagi tovar-moddiy zaxiralardan qanday foydalanishga baho berishdan iboratdir. Shuning uchun hozirgi kunda auditorlik xizmatidan foydalanish eng oqilona yo'ldir.

Tovar-moddiy zahiralarni auditorlik tekshiruvdan o'tkazishning maqsadlari ularning saqlanishi, tejamli va oqilona ishlatilishi, hisobga olishning to'g'ri tashkil etilishini aniqlashdan iborat. Shuningdek hisobot ko'rsatkichlarining ishonchliligini va tovar-moddiy zahiralarni bilan bog'liq muomalalar hisobi va soliqqa tortish uslubining O'zbekiston Respublikasida amal qilayotgan qonunchilik hamda me'yoriy hujjatlarga muvofiqligini aniqlashdan iborat. Ushbu maqsadga muomalalar mohiyatini, hamda nazorat tuzilmasi va buxgalteriya hisobi tizimini tekshiruvdan o'tkazish va tavakkalchilik (risk)larni baholash orqali erishiladi. Zahiralarni tekshirish, ular hajmi katta bo'lgan sub'ektlarda auditning asosiy qismi deb qaraladi.

Tovar-moddiy zahiralarni bo'yicha hisobot ko'rsatkichlarining haqqoniylikini tekshirishda boshqa audit ob'ektlaridagi kabi, dastavval, balansning «Ishlab chiqarish zahiralari», «Tugallanmagan ishlab chiqarish», «Tayyor mahsulot», «Tovarlar» moddalari, Bosh daftar, jurnal-orderlar va boshqa hisob registrlari orasidagi tenglikni aniqlash zarur (4-jadval).

Tekshiruv jarayonida auditor quyidagilarni aniqlashi lozim:

Tovar-moddiy zahiralari auditi ob'ektlari.

4-jadval

Ko'rsatkichlar nomi	Moliyaviy hisobot shakllaridagi ko'rsatkichlar	
	1-shakl	4-shakl
	Satr raqami	Satr raqami
1	2	3
Tovar-moddiy zahiralari (satr. 150+160+170+180), jumladan:	140	
Ishlab chiqarish zahiralari (1000, 1100, 1500, 1600)	150	
Tugallanmagan ishlab chiqarish (2000, 2100, 2300, 2700)	160	
Tayyor mahsulot (2800)	170	
Tovarlar (2900 dan 2980 ning ayirmasi)	180	
Material, ish, xizmatlar uchun mol etkazib beruvchilarga to'lanadigan pul mablag'lari		020

* zaxiralarning haqiqatd mavjudligi;

*

zaxiralar bilan bog'liq barcha muomalalarning buxgalteriyahisobis chiyotlarid ato'liq vato'g'ri aksettirilganligi;

* barcha zaxiralarkorxonamulki ekanligiya'ni ulargamulkiy huquq mavjudligi, qarzsifatida aksettirilgan summala resama juriyatekanligi;

* zaxiralarni va ular bilan bog'liq majburiyatlarni baholashning to'g'riligi;

* tovar-moddiy zaxiralarni hisobga olish tamoyillari to'g'ri tanlanilganligi va qo'llanilishining to'g'riligi.

Tovar-moddiy zaxiralarni tekshirishda quyidagi ma'lumot manbalaridan foydalaniladi:

1. Moddiy boyliklarni qabul qilish, hisobga olish, saqlash va berishga aloqador me'yoriy hujjatlar.
2. hisob siyosati to'g'risidagi buyruq.
3. Tovar - moddiy zaxiralar bilan bog'liq muomalalarni rasmiylashtirishga doir dastlabki hujjatlar.

4. Tashkiliy-huquqiy hujjatlar va materiallar.
5. Tovar-moddiy zaxiralarni hisobga olishga doir buxgalteriya hisobi registrlari va buxgalteriya hisobotlari.

№3-«Auditni rejalashtirish» AFMS qoidalariga ko'ra dastlabki reja parametrlari aniqlanib, umumiy tuzilganidan so'ng audit dasturi ishlab chiqilishi lozim. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, tovar-moddiy zaxiralar mohiyatan murakkab va sermehnat hisob hamda audit ob'ekti bo'lganligi bois, bizning fikrimizcha batafsil audit dasturi tarkibida alohida bo'lim shakllantirish zarur.

Batafsil audit dasturini shakllantirishda quyidagi asosiy tamoyillarga tayanish maqsadga muvofiq (5-jadval).

5-jadval

№	Balans moddalarini shakllantirish tamoyillari	Auditorlik amallari
1	To'liqlik va mavjudlik	Zaxiralarning buxgalteriya xisobi va xisobotda to'liq aks ettirilganligi. Ushbu tamoyilning buzilish hisobot ma'lumotlari xaqqoniyligining pasayishiga olib keladi.
2	Baholash	Zaxiralarni kirim qilishda sotib olish bahosi noto'g'ri aniqlangani uchun tannarx va moliyaviy natijalar to'g'ri chiqmaydi.
3	Xuquq va majburiyat	Korxonaga balansiga mulkiy huquqqa ega bo'lmagan mulklarni komissiya yoki konsignasiya shartnomalari bo'yicha olingan moddiy qiymatliklar kiritilishi. Majburiyatlar aynan tovar-moddiy zaxiralar va ular bilan bog'liq ish, xizmatlarga dahldor ekanligini tasdiqlash.
4	Muvofiqlik (hisobot davri aniqligi)	Xatolar muomalalarning hisob davrlariga noto'g'ri taqsimlanishi boshqa hisobot davrida aks ettirish bilan bog'liq.
5	Taqdim etish va ochib berish	Tovar-moddiy zaxiralarni turkumlanishi, izohlanishi va moliyaviy hisobotda aks ettirish qoidalariga

		muvofoq berilishini tekshirish.
--	--	---------------------------------

Audit dasturining «tovar-moddiy zaxiralar auditi» bo'limining quyidagi namunaviy shakli tavsiya qilinadi (6-jadval).

Tovar-moddiy zaxiralar bo'yicha auditorlik tekshiruvi dasturi

Tekshiriladigan tashkilot _____

Audit davri _____

Kishi-soatlar miqdori _____

Auditorlik guruhining raxbari _____

Auditorlik guruxining tarkibi _____

Rejalashtirilgan auditorlik riski _____

Rejalashtirilgan jiddiylik darajasi _____

№	Auditorlik amallari	O'tkazish vaqti	Bajaruvchi	Auditorni ish hujjatlari	Eslatma
1	Tovar-moddiy zaxiralar hisobiga doir xo'jalik muomalalarini hujjatlashtirishning qonuniyligini tekshirish			Ta'minot bo'limida tuzilgan shartnomalar, buyurtmalar, dastlabki hujjatlar	
2	«Materiallar harakati to'g'risida hisobot» tuzishning sifatini tekshirish			«Materiallar harakati to'g'risidagi hisobot» va omborxonaga hisobiga doir hujjatlar	
3	To'liq moddiy javobgarlikning ta'minlanganligini tekshirish			«To'liq moddiy javobgarlik to'g'risida shartnomalar»	
4	Materiallarning baholanishi, transport-tayyorlov xarajatlarining taqsimlanishini tekshirish			Hisob siyosatida tanlangan baholash usuli, uning amalda qo'llanilishi, taqsimlash hisob-kitoblari	
5	Tovar-moddiy zaxiralar-ning to'g'ri turkumlani-shi, analitik hisob nomenklaturasining tuzilishini tekshirish			Analitik hisob registrlari, saldo vedomostlari	
6	Inventarizatsiya o'tkazilishini va uning natijalarini rasmiylashtirishni tanlab tekshirish			Inventarizatsiya	

				ro'yxatlari , dalolatno malar, solishtiris h qaydnoma lari	
7	Sintetik hisob bo'yicha schyotlar korrespondensiyalarining to'g'ri tuzilishini tekshirish			10-jurnal- order, buxgalteri ya ma'lumotn omalari	

Auditorlik guruhi rahbari:

Auditorlar:

Auditor tekshiruvga kirishish chog'ida tekshiruvning ushbu sohasi bo'yicha tanlangan hisob yuritish usullari va uslublari to'g'risida axborotga ega bo'lishi lozim. 4-sonli «Tovar-moddiy zaxiralar» nomli buxgalteriya hisobi milliy standarti talablariga muvofiq korxonaning hisob yuritish siyosati to'g'risidagi buyrug'ida tovar-moddiy boyliklarni hisobga olishning uslubiy jihatlari, xususan quyidagilar haqidagi axborotlar aks ettirilishi lozim:

- asosiy vositalar bilan inventar va xo'jalik ashyolari o'rtasidagi chegaralar;
- tovar-moddiy boyliklarni sotib olish (tayyorlash)ni hisobga olish;
- tovar-moddiy boyliklarni ularning turlari bo'yicha hisobdan o'chirish chog'ida baholash usullari.

Tovar-moddiy zaxiralarni auditorlik tekshiruvlaridan o'tkazishda eng avvalam bor, korxonalarda Tovar-moddiy boyliklarni saqlanishi, saqlanish me'yorlarining talab darajasidagi hamda keltirilgan Tovar-moddiy zaxiralarning ishlab chiqarishga berish jarayonida belgilangan normalar asosida sarflanishi hamda Tovar-moddiy zaxiralarning buxgalteriya hisobidagi yuritish holati bo'yicha qo'llaniladigan barcha hujjatlarini ya'ni buxgalteriya rekvizitlari to'lig'icha ko'rib chiqish zarur. Hujjatlarni qabul qilishdagi, chiqarishdagi javobgar shaxslarni bu sohadagi holati atroflicha hujjat yuritish bilan taqqoslash zarur.

3.2. Tovar moddiy zaxiralar auditini o'tkazish va uni natijalarini rasmiylashtirish.

Tovar-moddiy zahiralalar bilan bog'liq xo'jalik muomalalarini auditorlik tekshiruvidan quyidagi ketma-ketlikda o'tkazish maqsadga muvofiq:

-mazkur tekshiruv uchastkasining yo'nalishlari bo'yicha hisob siyosatining qoidalarini o'rganish;

-tovar-moddiy zahiralarga doir ichki nazorat tizimining ishonchlilik darajasini baholash. Buning uchun ombor xo'jaligi va omborxonalarining holatini tekshirib chiqish;

-moddiy javobgar shaxslar tomonidan tovar hisobotlarini tuzish va belgilangan muddatlarda buxgalteriyaga topshirilishini o'rganish;

-tovar-moddiy qiymatliklarning hisobot sanasiga tarkibini tahlil qilish;

-tanlab inventarizatsiya qilinadigan ob'ektlarni aniqlash;

-tovar-moddiy zahiralalar harakatini tahlil qilish;

-tovar-moddiy zahiralarni baholashning to'g'riligini tekshirish;

-tovar-moddiy zahiralalar sintetik va analitik hisobining tashkil etilishi hamda holatini tekshirish.

Tovar-moddiy zaxiralarni auditorlik tekshiruvidan o'tkazish buxgalteriya hisobotida katta xatoliklarga yo'l qo'yish xavfini kamaytiradi. Shuning uchun, tovar moddiy zahiralarni tekshirishni boshlashdan oldin, auditor eng ko'p uchraydigan qoidabuzarliklarni aniqlashi va shuni hisobga olgan holda zarur tekshiruv amallarini tanlashi kerak.

№50-sonli «Auditorlik dalillar» nomli AFMSning 16-bandiga muvofiq «auditorlik dalillarini xo'jalik yurituvchi sub'ektning ichki nazorat tizimini test sinovidan o'tkazish va mohiyati bo'yicha tekshirish amallarini o'tkazish yo'llari bilan olish mumkin»

Bizning fikrimizcha, auditorlik teshiruvlarini boshlashdan oldin tovar-moddiy zaxiralar hisobi bo'yicha buxgalteriya hisobi tizimi va ichki nazoratning ahvolini tekshirish zarur. Buning uchun quyidagi savolnoma-test jadvalidan foydalanishni tavsiya qilamiz (6-jadval).

Tovar-moddiy zaxiralar hisobining tashkil etilishi va ichki nazorat tizimining ahvolini baholash bo'yicha savolnoma-test (tavsiya)

6-jadval

№	Test savolining mazmuni	Javoblar		
		Ha	Yo'q	Eslatma
1	Tovar-moddiy zaxiralarni hisobdan chiqarish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida buyruq borligi?	✓		
2	Hisob yuritish siyosati to'g'risidagi buyruqda tovar-moddiy zaxiralarni inventarizasiya qilish usullari va muddatlari ko'rsatilganmi?		✓	
3	Inventarizasiya o'tkazish va natijalarini rasmiylashtirish bo'yicha amaldagi me'yoriy hujjatlar mavjudmi?	✓		
4	Inventarizasiya belgilangan muddatlarda o'tkazilganmi?		✓	
5	Tovar-moddiy zaxirlar oxirgi marta qachon inventarizasiya qilingan?	✓		2 yil oldin
6	Inventarizasiya natijalari hisobda aks ettirilganmi?		✓	So'nggi 2 yil inv. o'tkazilmagan
7	Tovar-moddiy zaxiralar koldikdari normativga mosmi?		✓	
8	Tovar-moddiy zaxiralarni saqlash va ishlatish joylari hisob registrida aks ettirilganmi?	✓		
9	Omborxonada xo'jaligining tashkil etilishi va yong'inning oldini olish chora-tadbirlari talabga javob beradimi?	✓		
10	Tovar-moddiy zaxiralarni saqlash uchun mas'ul shaxslar bilan to'liq moddiy javobgarlik to'g'risida shartnomalar tuzilganmi?		✓	

11	Korxonada tovar-moddiy zaxiralar hisobiga doir dastlabki hujjatlarning unifikatsiyalangan shakllari qo'llaniladimi?	✓		To'liq emas
12	Tovar-moddiy zaxiralar hisobi bo'yicha hujjatlar aylanish reja-grafigi tuzilganmi?		✓	
13	Bosh buxgalter tomonidan hujjatlar aylanish reja-grafigiga rioya qilish ustidan nazorat amalga oshirilganmi?		✓	
14	Tovar-moddiy zaxiralar ob'ektlari yongin va boshqa tabiiy ofatlardan sug'urta qilinganmi?	✓		
15	Tovar-moddiy zaxiralar turkumlanganmi?		✓	
16	Tovar-moddiy zaxiralar kodifikatori ishlab chiqilganmi?		✓	
17	Buxgalteriya xodimlari TMZni tabiiy kamayish me'yorlari to'g'risidagi hujjatlar bilan ta'minlanganmi?		✓	
18	Analitik hisob ma'lumotlari sintetik hisob registrlari bilan taqqoslanganmi?	✓		Ha faqat balans tuzish paytida
19	Tovar-moddiy zaxiralarni hisobdan chiqarish bo'yicha dalolatnomalar va boshqa hujjatlar rahbar tomonidan tasdiqlanganmi?	✓		
20	Tovar-moddiy zaxiralarni hisobga olishning saldo metodi qo'llaniladimi?		✓	
21	Transport-tayyorlov xarajatlarni hisobga olish va taqsimlash har oyda muntazam amalga oshirilganmi?		✓	
22	TMZni baholashning korxonada qo'llanilayotgan usuli BHMS va hisob siyosatiga mosmi?		✓	
23	Inventar va xo'jalik anjomlarini hisobdan chiqarish tartibi talabga javob beradimi?		✓	Birdaniga tannarxga o'tkaziladi
24	Ishlatishga berilgan inventar va xo'jalik jihozlari 014-"Foydalanishdagn inventar va xo'jalik jihozlari" balansdan tashqari schyotda aks ettirilganmi?	✓		
25	Korxonada 002, 003, 004 va 014-balansdan tashqari			

	schyotlar bo'yicha qoldiqdar mavjudmi? Ushbu schyotlar bo'yicha hisob yuritish tartibiga rioya qilinganmi?		✓	
--	--	--	---	--

Shuningdek, ushbu standartlar auditorlik dalillarining yetarli va mos bo'lishini talab qiladi. Yetarlilik fikr bildirish uchun zarur dalillarining miqdoriy chegarasini bildiradi.

Moslik auditorlik dalillarining sifat jihatlarini ifodalab, ularning ahamiyatliligi va ishonchliligini ta'minlaydi.

№50-«Auditorlik dalillari» AFMS yetarlilik va moslikni ta'minlashda auditorlik tashkilotga quyidagi omillarni hisobga olishni tavsiya qiladi:

- xo'jalik yurituvchi sub'ektning buxgalterlik hisobi va ichki nazorat tizimining tavsifi, shuningdek ajralmas va ichki nazorat tizimi tavakkalchiliklarini baholash;
- auditorlik tashkiloti tomonidan bajariladigan ishlar hajmi;
- mavjud ma'lumotlarning manbasi va ishonchliligi.

Tovar-moddiy zaxiralarni auditorlik tekshiruvdan o'tkazish buxgalteriya hisobotida katta xatolarga yo'l qo'yish xavfini kamaytiradi. Shuning uchun, tovar-moddiy zaxiralarni tekshirishni boshlashdan oldin auditor eng ko'p uchraydigan qoidabuzarliklarni aniqlashi va shuni hisobga olgan holda zarur tekshiruv amallarini tanlashi kerak.

Tovar-moddiy zaxiralar to'g'risidagi axborotlarning ishonchliligi bo'yicha auditor fikrining shakllanishiga quyidagi omillar ta'sir ko'rsatadi:

- a) to'liq aks ettirilish - korxonaga tegishli barcha tovar-moddiy zaxiralarning buxgalteriya yozuvlarida aks ettirilganligi va buxgalteriya hisobotiga kiritilganligi. Tovar-moddiy boyliklar bilan bog'liq muomalalarni buxgalteriya hisobida aks ettirishning to'liqligidagi xatolar hisobot ma'lumotlari haqqoniyligining pasayishiga olib keladi. Bunday xatolarni topish ancha murakkab. Buning uchun auditor dan dastlabki hujjatlarni yoki hisobga taalluqli bo'lmagan axborotlarni tanlab olish talab qilinadi.
- b) Tovar-moddiy zaxiralar bilan bog'liq muomalalarni yetarli darajada asos bo'lmagan hollarda hisobga olishning mavjudligi. Masalan, korxonada o'z

balansiga mulkiy huquqqa ega bo'lmagan mulklarni - komissiya yoki konsignasiya shartnomalari bo'yicha olingan moddiy qiymatliklarni kiritgan. Bunday xatolar hisobot ko'rsatkichlarining oshirib ko'rsatilishiga olib keladi.

v) xo'jalik faoliyati faktlarining vaqtinchalik aniqlik tamoiliga rioya qilinishi. Bu xatolar muomalalarning hisob davrlariga noto'g'ri taqsimlanishi ya'ni ularning sodir bo'lgan hisobot davrida emas, balki boshqa hisobot davrida aks ettirish bilan bog'liq. Ko'pchilik hollarda amaliyotda olingan materiallar ularga bo'lgan mulkiy huquq oluvchiga o'tmasdan oldin aks ettiriladi, yoki aksincha, materiallari hali yo'lda bo'la turib, ularga mulkiy huquq xaridorga o'tgan bo'ladi. Mol etkazib beruvchilardan schet-fakturasiz olingan moddiy qiymatliklar hisobda aks ettirilmaydi yoki kirim qilinmaydi. Davriylashtirishdagi xatolarni aniqlash uchun auditor hisob yozuvlarini o'rganishi va ularni dastlabki hujjatlar bilan solishtirishi kerak.

g) Tovar-moddiy boyliklarni baholashning to'g'riligi. Masalan, ularni kirim qilishda sotib olish bahosi noto'g'ri aniqlanib, buning oqibatida amortizasiya noto'g'ri hisoblanadi. Bu xatolar hisob yuritish uslubiyotining buzilishiga olib keladi va ko'p hollarda muntazam sodir bo'ladi.

d) Tovar-moddiy zaxiralarni buxgalteriya hisobining tegishli schyotlarida aks ettirishning to'g'riligi. Bunday xatolar inventarizasiya o'tkazish chog'ida aniqlanishi mumkin.

Tovar-moddiy zaxiralar qoldiqlarini aks ettirish va sotilgan mahsulot tannarxini hisoblashning to'g'riligiga ta'sir qiluvchi muomalalar quyidagilar natijasida yuzaga keladi:

a) buxgalteriya hisobotining buzilishi: oldingi davrlarda hisobdan o'chirilgan, hamda foydalilik xususiyatlarini to'liq yoki qisman yo'qotgan moddiy qiymatliklar inventarizasiya ma'lumotlariga qo'shilishi; yo'ldagi tovarlarni yoki sotilib bo'lingan tovarlarni ikki marta hisobga olish; uchinchi shaxslar omborida saqlanayotgan ishlab chiqarish zaxiralari qoldiqining oshirib ko'rsatilishi; komissiyaga qabul qilingan ya'ni balansdan tashhari schyotlarda hisobda turgan

tovar-moddiy zaxiralar ham inventarizasiya ma'lumotlariga qo'shilishi va shunga o'xshash;

b) suyiste'mol qilishlar: korxonaning bir necha xodimlari hatti-harakati yoki saqlash ustidan yetarli nazorat o'rnatilmaganligi oqibatida qiymatliklarning o'g'irlanishi; olingan tovarlar hujjatlarda ko'rsatilganidan kam yoki sifatsiz bo'lsa, ularni qabul qilish uchun mas'ul shaxslarning mol yetkazib beruvchilardan pora (pul yoki sovg'a ko'rinishidagi buyum) olish hollari; haqiqatda yo'q xaridorlarning rekvizitlarini ko'rsatish yo'li bilan jo'natish hujjatlarini qalbakilashtirish.

Yuqorida ko'rsatilganidek, hisobot davri davomida to'liq yoki to'g'ri aks ettirilmaganligi sababli yil oxirida zaxiralar oshirib yoki pasaytirib ko'rsatilishi mumkin. Xaridlar quyidagi ikkita holning bittasi sababli pasaytirib ko'rsatilishi mumkin.

1) Muomalalarni hisobda aks ettirmaslik. Bunday muomalalar kreditor harzlarni tekshirish chog'ida aniqlanishi mumkin. Masalan, buxgalteriya hisobi registrlaridagi yozuvlarni taqdim qilingan, olingan moddiy qiymatliklar uchun mol yetkazib beruvchilarga to'langanlikni isbotlovchi schyotlar, shartnomalar, isbotlovchi pul hujjatlari ma'lumotlari bilan solishtirib, auditor ayrim schyotlarning buxgalteriya hisobi registrlarida aks ettirilmay qolganligini aniqlashi mumkin.

2) Muomalalar noto'g'ri turkumlangan. Masalan, tovar-moddiy zaxiralarning sotib olish qiymati ularni sotib olish bilan bog'liq bo'lgan barcha xarajatlardan iborat. Lekin, bunday sarflarning bir qismi yoki ayrim turlari (masalan, sotib olinayotgan xom ashyoning sifatini aniqlashga doir ekspert xizmati qiymati) tovar-moddiy zaxiralar qiymatiga qo'shilmasdan, birdaniga sarflarga olib borilgan bo'lishi mumkin. Xaridlar hajmi qalbaki xaridlar yoki muomalalarni aks ettirish kabi xarajatlar noto'g'ri turkumlangan hollarda oshirib ko'rsatilgan bo'lishi mumkin. Bunday faktlarni aniqlash uchun xarajatlarni tanlab tekshirish va zarur analitik amallarni bajarish lozim.

3.3. Tovar-moddiy zaxiralar auditini takomillashtirish.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida faoliyat ko'rsatayotgan barcha xo'jalik sub'ektlari tomonidan mulkdan, pul mablag'laridan foydalangan holda tijorat operatsiyalari hamda investitsiyalar bo'yicha shartnomaviy munosabatlar amalga oshiriladi. Moliyaviy axborot olish va undan foydalanish imkoniyatining mavjudligi bitim ishtirokchilarida amalga oshiriladigan operatsiyalarga nisbatan ishonchni ta'minlaydi. Mulkdorlar, eng avvalo, jamoaviy mulk egalari - aksiyadorlar, paychilar hamda kreditorlar korxonaning ko'pincha juda murakkab bo'lgan barcha operatsiyalari qonuniyligi va ularning hisobotlarda to'g'ri aks ettirilganligiga mustaqil ravishda ishonch hosil qilish imkoniyatlaridan cheklangan. Chunki, ular odatda hisobot yozuvlaridan foydalanish yuzasidan zaruriy tajribaga ega bo'lmasliklari mumkin. Bunday holat mulkdorlar uchun axborotlar haqqoniyligini mustaqil tasdiqlovchi xizmat ehtiyojini keltirib chiqaradi. Bunday xizmat turi, albatta, mustaqil auditorlarda mujassamlashgan.

Mamlakatimizda erkin iqtisodiyotning rivojlanib borishi, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning o'zaro va xalqaro iqtisodiy aloqalarining keng ko'lamda jadallashib borishi, shubhasiz, yuqori saviyadagi auditorlik xizmatlariga bo'lgan talabni taqozo etadi. Ma'lumki, har bir korxonada, umuman tadbirkorlik sub'yekti o'zining moliyaviy-xo'jalik faoliyatini vaqti-vaqti bilan o'rganib tahlil qilib, unga baho berishi va aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish yo'llarini aniqlab, kelgusi ish rejalarini belgilab olishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bu ishlarni amalga oshirishda auditorlik xizmatlarining o'рни alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki, bozor iqtisodiyoti aniq va to'g'ri hisob-kitobni, har bir so'mni tejab-tergab sarf qilishni talab qiladi. Auditorlik xizmati xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning buxgalteriya hisobi va hisobotini atroflicha tekshirib, yo'l qo'yilgan kamchilik va nuqsonlarni aniqlash bilan birga ularni bartaraf etish, maromiga yetkazish bo'yicha tavsiyalar berib, yo'l-yo'riqlarni ko'rsatadi hamda boshqa konsalting xizmatlarini ham bajaradi.

Mamlakatimizda nafaqat tadbirkorlik sub'ektlari, balki auditorlik xizmatlarini takomillashtirishning huquqiy jihatlariga ham alohida ahamiyat berilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, auditorlik xizmatlarini xalqaro amaliyot bilan integratsiyalashuvini ta'minlash, respublikamiz miqyosida auditorlar va auditorlik firma hamda kompaniyalari o'rtasida raqobatni kuchaytirish, ular faoliyatini muvofiqlashtirish mamlakatimiz iqtisodiyotini barqarorlashtirishda va rivojlangan mamlakatlar qatoridan o'rin olishida asosiy mexanizmlardan biri bo'lib xizmat qiladi.

Keyingi yillarda Hukumatimiz tomonidan xususiy tadbirkorlik va kichik biznesni qo'llab quvvatlash bo'yicha bir qancha qarorlar qabul qilinmoqda. Bu qarorlarga asosan o'zimizning respublikada xalqimizning o'sib kelayotgan xalq xo'jaligi mollariga bo'lgan talabni qondirish ishlab chiqarish jarayonini yo'lga qo'yishdan iboratdir. Hukumatimiz tomonidan bu qarorlarni qo'llab quvvatlash maqsadida ma'lum bir real ishlar amalga oshirilmoqda.

2013-yil 1-yanvardan boshlab xo'jalik yurituvchi sub'ektlar hisobotini topshirish shakli, ya'ni "Asosiy vositalar harakati to'g'risida"gi hisobot shakli qisqartirildi va hisobotlar elektron shaklda topshiriladigan bo'ldi.

Hukumat tomonidan qabul qilingan qarorlarni bajarilishini nazorat qiluvchi tashkilot bo'lib nodavlat tashkilot ya'ni auditorlik tashkilotlari hisoblanadi. Auditorlik xizmatlaridan foydalanishni keng yo'lga qo'yish zarur. Bu uchun eng avvalambor buxgalteriya hisobini xalqaro standartlar darajasida amalga oshirish uchun muayyan ishlar amalga oshirilmoqda. Bular quyidagilar: "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonun, "Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida" Nizom, "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi Qonun, Milliy hisoblarni tashkil qiluvchi andozalar va shu kabilardir.

Hozirgi kunga kelib auditorlik xizmatidan keng foydalanish hamda bu xizmat turini jahon andozalariga yetkazish maqsadida muayyan ishlar amalga

oshirildi va oshirilmoqda. Bu ishlarni barchasini O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi, Adliya Vazirligi hamda Auditorlar Palatasi tomonidan ishlab chiqilgan "Auditor malaka sertifikatini berish tartibi to'g'risida"gi Nizomni hisobga olsak bo'ladi. Ushbu qabul qilingan Nizom "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi Qonunga mos ravishda olib borilishini ta'minlab beradi. Auditorlik tekshiruvini jahon andozalarida olib bo'rish uchun quyidagi sinov imtihonlarini topshirish zarur.

Auditor malaka sertifikatini O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan, agar da'vogar malaka imtihonini muvaffaqiyatli topshirgan bo'lsa, beriladi.

Malaka imtihoni auditorlik tashkiloti nomidan auditorlik tekshiruvlarini amalga oshirishga da'vogar bo'lgan shaxslar bilimlarini tekshirish vositasi hisoblanadi.

Malaka imtihonini topshirishga mazkur Nizom bilan belgilanadigan malaka talablariga javob beradigan da'vogarlar qo'yiladi.

Auditor malaka sertifikatini olishga da'vogar quyidagi talablarga javob berishi kerak:

- 1) O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalarida olingan oliy iqtisodiy ma'lumotga yoki xorijiy davlatning ta'lim muassasasida olingan hamda qonun hujjatlariga muvofiq O'zbekiston Respublikasidagi ta'limga ekvivalent deb e'tirof etilgan oliy iqtisodiy ma'lumotga ega bo'lish va oliy ta'lim muassasini tugallaganidan so'ng oxirgi o'n yil ichida kamida uch yillik buxgalteriya hisobi, audit, moliyaviy yoki soliq nazorati sohasida yoxud shu sohalarda dars berish amaliy ish stajiga (shu jumladan, o'rindoshlik asosida) ega bo'lish; yoki O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalarida olingan iqtisodiy bo'lmagan oliy ma'lumot yoxud xorijiy davlatning ta'lim muassasasida olingan hamda qonun hujjatlariga muvofiq O'zbekiston Respublikasidagi ta'limga ekvivalent deb tan olingan iqtisodiy bo'lmagan oliy ma'lumot bilan oliy ta'lim muassasini tugallaganidan so'ng oxirgi o'n yil ichida kamida 5 yil auditor,

auditor yordamchisi, bosh buxgalter, taftishchi yoki soliq inspektori sifatida ish stajiga ega bo'lish, shu jumladan, o'rindoshlik asosida; yoxud O'zbekiston Respublikasida yoki xorijiy davlatda (qonun hujjatlariga muvofiq nostrifikatsiyalash o'tkazilganligi sharti bilan) olingan iqtisod fanlari nomzodi (doktori) ilmiy darajasiga ega bo'lish.

2)

O'zbekiston Respublikasi Moliyavazirligi tomonidan respublika auditorlar jamoatbi rlash masibilankelishgan holda tasdiqlanadigan o'qitish dasturi asosida auditorlarni tayyorlash markazlarida maxsus o'qitishdano'tish va malakali buxgalterlarni xalqaro sertifikatlash ("Sertifikatlangan amaliyotchi buxgalter (CAP)", "Sertifikatlangan xalqaro malakali buxgalter (CIPA)" yoki boshqalar) doirasida "Moliyaviy hisob"

predmetini muvaffaqiyatli topshirganlik to'g'risida hujjatning mavjudligi.

Malakali buxgalter xalqaro sertifikatiga ("Sertifikatlangan amaliyotchi buxgalter (CAP)", "Sertifikatlangan xalqaro malakali buxgalter (CIPA)" sertifikati yoki boshqalarga)

egabo'lgan va O'zbekiston Respublikasi hududidagi iqtisodiy sohadakamida 5 yillik ish stajiga egabo'lgan talabgorlarning malakaviy tihonini topshirishga auditorlarni tayyorlash markazlarida maxsus o'qitishdano'tmasdankiritiladilar.

Bunday holatlar Respublikada o'tkaziladigan tekshiruvlarni sifati va o'z navbatida auditorlik xizmatlarini jahon andozalari asosida o'tkazib berishga xizmat qiladi.

Hozirgi kunda auditorlik xizmatlarini bunday tezkor rivojlanishi uchun Respublikada barcha shart-sharoitlar mavjud hamda mutaxassislar tayyorlanmoqda. Tayyorlanayotgan auditorlar dunyo miqyosida tayyorlanayotgan auditorlar bilan teng ish olib bormoqda.

Mamlakatimiz olimlari va mutaxassislari B.Pardayev va Qosimovlar ta'riflashicha: «Ajralmas tavakkalchilik - bu xo'jalik yurituvchi sub'ektning ichki nazorat tizimi samaradorligini hisobga olmasdan, jiddiy xatoga yo'l qo'yishdir. Auditor auditorlik tekshiruvining rejalashtirish bosqichida yoqo'z professional

mulohazasidan foydalanib, tekshirilayotgan xo'jalik yurituvchi sub'ektning ajralmastavakkalchiligiga baho berishi lozim. Auditor auditorlik tekshiruv dasturini tayyorlash vaqtida muhimlik darajasining belgilangan darajasini oshirayotgan buxgalteriya hisobining schyotlari qoldig'i yoki ayrim xo'jalik operasialari oborotlari uchun ajralmas tavakkalchilikni baholashi lozim», «Nazorat tizimi tavakkalchiligi bu ichki nazorat tizimi xatolarining oldini olish yoki ularni aniqlash imkonini ifodalaydi.

Nazorat tizimi tavakkalchiligi tekshirilayotgan xo'jalik yurituvchi sub'ektning buxgalteriya hisobi schyotlari, buxgalteriya balansi moddalari, bir turdagi xo'jalik operasialari guruhi va umuman moliyaviy hsobotda xatolarga yo'l qo'yilishi ehtimoliga qanchalik yaqinligini bildiradi»

Demak, tovar-moddiy zaxiralar auditini rejalashtirishni boshlashdan oldin balansning «Ishlab chiqarish zaxiralari» (150-satr), «Tugallanmagan ishlab chiqarish» (160-satr), «Tayyor mahsulot» (170-satr), «Tovarlar» (180-satr) degan moddalari, Bosh daftar, jurnal-orderlar vaboshqahisob registrlari orasidagi tenglikni aniqlash zarur. Shu bilan birga, sintetik va analitik hisob ma'lumotlarining muvofiqligiga ishonch hosil qilishi muhimdir.

XULOSA VA TAKLIFLAR.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLARRO'YXATI.

I. O'zbekiston Respublikasi qonunlari. O'zbekiston Respublikasi Prezident farmonlari va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning asarlari.

I.1. O'zbekiston Respublikasi Qonunlari.

- 1.1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. -Toshkent, O'zbekiston. 2011.
- 1.2. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi.-Toshkent, O'zbekiston. 2012
- 1.3. O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi.-Toshkent, O'zbekiston. 2011.
- 1.4. O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya Hisobi to'g'risida"gi Qonuni. -T.: 1996 y.
- 1.5. O'zbekiston Respublikasining "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi Qonuni.(Yangi tahrirda) 2000 y, 26 may.
- 1.6. O'zbekiston Respublikasi Qonuni "Mahsulot taqsimotiga oid bitimlar to'g'risida". O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik to'plami 1-son 312-II son - T.: 2001.

I.2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlariva Qarorlari.

- 1.7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining"Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni tekshirish tashkil qilishni tartibga solish to'g'risida" 1998 yil 19 noyabrdagi PF-2114-sonli Farmoniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Qonunlar To'plami 47-48-son 352-modda, PF-3694,- T.: 2005.
- 1.8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining"Bozor islohotlarini chuqurlashtirish va iqtisodiyotni yanada erkinlashtirish sohasidagi ustivor yo'nalishlarni amalga oshirilishini jadallashtirish chora tadbirlari to'g'risida""Soliq va Bojxona Xabarlari" gazetasi № 26(570) 2005 y 20 iyun.

I.3.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarorlari.

- 1.9. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy

natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida"gi Nizomi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 54-sonli Qarori. -T.: 1999y 5 fevral.

1.10. 2003 yil 15 oktabrdagi 444-sonli "Xo'jalik yurituvchi sub'yektlarning xarajatlarini hisobga olish hamda moliyaviy natijalarini shakllantirish tartibini to'g'risida takomillashtirish" qaroriga muvofiq kiritilgan qo'shimcha va o'zgartirishlar.

1.11. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori"Moddiy balanslarni ishlab chiqish va tasdiqlash uchun kiritish tartibi to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida" O'zbekiston Respublikasi Qonunlar To'plami 25-26-son 237-modda, 2006 y.

I.4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari

1.12. Karimov I.A. "Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida unibartaraf etishning yo'llari va choralari". -T.: "O'zbekiston". 2009y. -56 bet

1.13. Karimov I.A. "Bizning bosh maqsadimiz - jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatimizni moderinizasiya va islox etishdir". T.: "O'zbekiston", 2005 y 96 b.

1.14. Karimov I.A. "Asosiy vazifamiz - vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirish" 2009 yilning asosiy yakunlari va 2010 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi.Toshkent, "Xalq so'zi" gazetasi, 2010 yil 30 yanvar, 21 soni

1.15.Karimov I.A.2008 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2009 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagima'ruzasi. Toshkent, "Xalq so'zi" ro'znomasi 2009 yil 14 fevral, 33-34

1.16.Karimov I.A.2012-yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2013-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi nutqi

II. Asosiy va qo'shimcha adabiyotlar.

- 2.1. Auditning Xalqaro Standartlari, O'zBAMA Nashriyot-Ma'lumot Markazi.- T.: 2006 y. 206 b.
- 2.2. O'zbekiston Respublikasi Auditorlik Faoliyatining Milliy Standarti № 3 "Auditni rejalashtirish". 1999 y.
- 2.3. O'zbekiston Respublikasi Auditorlik Faoliyatining Milliy Standarti № 5 "Audit ishi sifatini nazorat qilish ". 1999 y.
- 2.4. O'zbekiston Respublikasi Auditorlik Faoliyatining Milliy Standarti № 50 "Auditorlik dalillar". 2002 y.
- 2.4. O'zbekiston Respublikasi Buxgalteriya Hisobi Milliy Standartlari, O'zBAMA Nashriyot-Ma'lumot Markazi.-T.: 2007 y. 198 b.
- 2.6. O'zbekiston Respublikasi Buxgalteriya Hisobi Milliy Standarti №4 "Tovar-moddiy zaxiralar".
- 2.7. O'zbekiston Respublikasi Buxgalteriya Hisobi Milliy Standarti № 19 "Inventarlashni tashkil etish va o'tkazish".
- 2.8. O'zbekiston Respublikasi Buxgalteriya Hisobi Milliy Standarti № 21 "Xo'jalik yurituvchi sub'yektlar moliyaviy- xo'jalik faoliyatining buxgalteriya hisobi hisobvaraqlari rejasi".
- 2.9. A. Karimov, A. Avloqulov «Buxgalteriya hisobi». T.: «Sharq» NMAK, 2004 yil. 591 b.
- 2.10. O. Bobojonov «Moliyaviy hisob». – T.: «Sharq» NMAK, 2000 yil. 476 b.
- 2.11. A. Abdullaev «Moliyaviy hisob». – T.: «Fan va texnologiya», 2005 yil. 286 b.
- 2.12. I. Ochilov «Moliyaviy hisob». – T.: «Iqtisod va moliya», 2006 yil. 396 b.
- 2.13. A. Vahobov, A. Ibragimov «Moliyaviy tahlil». – T.: «Sharq» NMAK, 2005
- 2.14. B. Xasanov «Boshqaruv hisobi», T.: TIMI, 2011 yil
- 2.15. A. Po'latov va boshqalar «Boshqaruv hisobi», T.: TIMI, 2007 yil.

2.16. F. G'ulomova «Buxgalteriya hisobini mustaqil o'rganish uchun qo'llanma». T.: 2012yil.

III. Davriy nashrlar, statistik to'plamlar va hisobotlar.

3.1. "O'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi" jurnal. -T.: 2012-2013 yillar

3.2. "Bozor, pul va kredit" jurnal. -T.: 2007-2009 yillar

3.3. "Soliq solish va Buxgalteriya hisobi" jurnal. -T.: 2006-2009 yillar

3.4. Bank axborotnomasi. Gazetasi. 2007-2009 yillar

3.5. O'zbekistonning 2012 yildagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi ko'rsatkichlari.
-T.: O'zbekiston, 2013.

IV. Internet saytlari.

www.uza.uz

www.mf.uz

www.lex.uz

www.norma.uz

www.soliqinfo.uz

www.referat.uz

www.glavbuxh.ru

www.saldo.ru

www.buhgalteriya.com.ua